

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YUSUPALIYEVA DILAFRUZ KAXRAMONOVNA**

**GLOBAL AXBOROT MAKONIDA JAMIYATNI LIBERALLASHTIRISH  
VA DEMOKRATLASHTIRISHDA OAV FAOLIYATINI  
TAKOMILLASHTIRISH (TELEVIDENIYE MISOLIDA)**

**23.00.02 - Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar**

**Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) по политическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract the Doctor (DSc) in political Sciences**

**Yusupaliyeva Dilafruz Kaхраmonovna**

Global axborot makonida jamiyatni liberallashtirish va demokratlashtirishda OAV faoliyatini takomillashtirish (televideniye misolida)..... 3

**Юсупалиева Дилафруз Кахрамоновна**

Совершенствование деятельности СМИ в либерализации и демократизации общества в глобальном информационном пространстве (на примере телевидения)..... 37

**Yusupaliyeva Dilafruz Kaхраmonovna**

Improving media activities in the liberalization and democratization of society in the global information space (by the example of television)..... 73

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 78

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YUSUPALIYEVA DILAFRUZ KAXRAMONOVNA**

**GLOBAL AXBOROT MAKONIDA JAMIYATNI LIBERALLASHTIRISH  
VA DEMOKRATLASHTIRISHDA OAV FAOLIYATINI  
TAKOMILLASHTIRISH (TELEVIDENIYE MISOLIDA)**

**23.00.02 - Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar**

**Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.DSc/Ss76 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezume)) O‘zbekiston Milliy universiteti veb-sahifasida (<http://nuu.uz>) hamda «ZiyoNet» axborot ta’lim portalining [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Normatov Karim Normatovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Jo‘rayev Narzulla Kasimovich**  
siyosiy fanlar doktori, professor

**Ergashev Bahodir Xojiqurbonovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Abduazimov Oqil Utkurovich**  
sotsiologiya fanlari doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.S.01.08 raqamli Ilmiy kengashning 2024 -yil « » yanvar soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 5-qavat, 511-xona. Tel.: 246-02-24 faks: (99871) 246-02-24; e-ma l: [nauka@nuu.uz](mailto:nauka@nuu.uz)).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( - raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy, O‘zMU Ma‘muriy binosi, 2-qavat, 4-xona. Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil - yanvar kuni tarqatildi.

(2023-yil - dekabr -raqamli reyestr bayonnomasi).

**Sh.I.Paxrutdinov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

**G.T.Isanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, s.f.f.d.(PhD)

**A.G.Mo‘minov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, s.f.d., professor

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahon hamjamiyatini global raqamli transformatsiyalash jarayoni ommaviy axborot vositalarining (OAV) siyosiy jarayonlarga va jamiyatni demokratlashtirishga nisbatan kuchayib borayotgan ta'siri bilan bog'liq. Hozirgi vaqtda televideniye ommaviy axborot vositalarining tarkibiy qismi sifatida siyosiy qarorlarni qabul qilish jarayonlariga katta ta'sir ko'rsatmoqda va bu borada o'zining sezilarli salohiyatiga ega.

Bugungi kunda televizion ko'rsatuvlar jamoatchilik bilan bevosita muloqot qilish instituti, siyosiy jarayonni amalga oshirishning eng muhim vositasi hisoblangan siyosiy kommunikatsiyaning kengaytirilgan shaklini ifodalaydi va siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlari bilan birgalikda televideniye, o'z navbatida, siyosiy barqarorlik, butun siyosiy tizimni mustahkamlash muammolari bilan bog'liq bo'lgan siyosiy kommunikatsiyaning muhim tarkibiy bo'g'ini sifatida namoyon bo'ladi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida siyosiy sohalar va ommaviy axborot vositalarining yaqinlashuvi jarayoni kuzatilmoqda, ommaviy axborot vositalari makoni siyosiy muloqotning asosiy muhitiga aylangan maxsus mediaviy-siyosiy tizim shakllanmoqda. Televideniye axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning asosiy vositalaridan biri sifatida jamoatchilik fikrining kundalik shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi, mafkuraviy zamin yaratadi, odamlarning axloqiy ta'sirchanligiga ta'sir qiladi, ham ichki, ham xalqaro siyosatdagi siyosiy qarorlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligi shu bilan bog'liqki, zamonaviy jamiyat oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari barcha vakolatli davlat organlari qatorida alohida mas'uliyatga ega. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida ommaviy axborot vositalarining ahamiyati va rolini alohida ta'kidlagan holda, "Axborot sohasida ham natijadorlik bosh talab, asosiy mezonga aylanmoqda. Bu borada keyingi yillar barchamiz uchun alohida sinov va mas'uliyat bosqichi bo'ldi. Endi kechagi yutuq va marralar bizni sira qoniqtirmaydi. Yangi O'zbekistonni barpo etishda OAV bizga suyanch va tayanch, o'ziga xos qanot bo'lishiga ishonaman".<sup>1</sup>

Turli-tuman texnik vositalarni rivojlantirish va modernizatsiya qilish shuningdek televideniye ommalashtirish darajasiga ham ta'sir qiladi. Respublikamizning barcha go'shalarida mintaqaviy televideniye keng tarqalgan bo'lib, u ham aholi hayotida jiddiy o'rin tutadi. Aynan televideniye u yoki boshqa mintaqa aholisiga siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotning eng muhim voqealaridan boxabar bo'lish imkonini beradi.

Shunday qilib, tanlangan mavzuning dolzarbligi zamonaviy O'zbekistondagi eng ommabop ommaviy axborot vositasi bo'lgan televideniye siyosiy aloqa kanali sifatida hali yaxshi o'rganilmaganligi, uning siyosiy jarayondagi o'rni va roli aniqlanmaganligi bilan belgilanadi.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Т.: Ўзбекистон, 2021. 122-бет.

Dissertatsiyada oldinga qo'yilgan maqsadlar va vazifalarga O'zbekiston Respublikasining quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlari: O'zbekiston Respublikasining "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida", "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida", "Telekommunikatsiyalar to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida", "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida", "Hukumatni shakllantirish tartibi demokratlashtirilishi va uning mas'uliyati kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli, "O'zbekiston tarixi" telekanalini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 11-iyuldagi PF-4360-sonli, "Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 2-fevraldagi PF-5653-sonli "2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 4-martdagi PF-6181-sonli Farmonlari, davlat rahbarining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 2-fevraldagi PQ-4151-sonli, "Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 28-iyundagi PQ-294-sonli qarorlari va boshqalarni tahlil qilish orqali erishiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasini rivojlantirishning birinchi ustuvor yo'nalishi "Demokratik-huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" doirasida amalga oshirildi.

**Muammoning o'rganilganik darajasi.** Zamonaviy tadqiqotchilarning ushbu sohadagi ilmiy ishlarini uch guruhga bo'lish mumkin: birinchi guruh - g'arb olimlari, ikkinchi guruh - rossiyalik olimlar va uchinchi guruh - mahalliy olimlar. Birinchi guruhga mansub F.Sibert, U.Shramm va T.Piterson, D. Xallin va P.Manchinilarning ingliz tilidagi, shuningdek X.Klyanshtoyber, B.Esser va B. Pfetsh, R.Blumning<sup>2</sup> nemis tilidagi ishlarida media tizimlarining qiyosiy nazariyasi masalalari ko'rib chiqilgan. Nemis tadqiqotchilari X.Mayn va A.Dornerlarning ishlarida GFRdagi jamoat televideniyesi faoliyati bilan bog'liq masalalar, K.Doych, J.Xabermas<sup>3</sup> kabi amerikalik va nemis olimlarining ishlarida esa siyosat kommunikatsiya va axborot oqimlari tizimi sifatida ko'rib chiqiladi.

---

<sup>2</sup> Сиберт Ф.С., Шрамм У., Питерсон Т. Четыре теории прессы. – М., 1998. 224–бет., Hallin C.D., Manchini P. Comparing Media Systems: Three Models of Media and Politics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004., Kleinsteuber H. Mediensysteme / in: Weischenberg, Siegfried et al. (Hrsg.): Handbuch Journalismus und Medien. Konstanz, 2005. 275–280–бетлар, Esser, F. Journalismus vergleichen: Komparativ Forschung und Theoriebildung // Theories des Journalismus: Ein diskursives Handbuch. Aufl. 2. Wiesbaden, 2004. 151–180–бетлар, Blum, R. Lautsprecher und Widersprecher. Ein Ansatz zum Vergleich der Mediensysteme. – Koeln: Herbert von Halem Verlag, 2014. 440–бет.

<sup>3</sup> Майн Х. Средства массовой информации в Германии [Текст] / Х. Майн. – Берлин, 2000. 236–бет., Andreas Dörner/Ludgera Vogt(Hrsg.). Unterhaltungsrepublik Deutschland. – Bonn, Bundeszentrale für politische Bildung, 2012. 320 –бет., Дойч К. Нервы управления. Модель политической коммуникации и контроля. М., 1993, 126-

Ikkinchi guruhga mansub bo'lgan rus olimlari orasida Yu.A.Nisnevich, R.A.Sabitov, S.A.Yurovskiy, Yu.S.Martinov, L.A.Vondyukov, M.Yu.Markeev<sup>4</sup> va boshqalarning dissertatsiya tadqiqotlarini alohida qayd etish lozim.

O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan mamlakatning ijtimoiy-siyosiy makonida jamiyat va davlatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayoni boshlandi, televideniyeining demokratik ravishda rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratildi. Milliy OAVni shakllantirish va rivojlantirishning xolisona tahlilini yangi uslubiy pozitsiyalardan yoritishga ilk urinishlar qilindi. Sh.Paxrutdinov, I.Ergashev, B.To'ychiev, N.Jo'rayev, U.Idirov, A.Mo'minov, M.Qirg'izboyev, B.Omonov, A.O'tamurodov, Sh.A.Murodova, Q.Baxriyev, M.X.Tursunov va I.Ye.Hamidov, J.Yo.Mavlonov, S.M.Doniyorov kabi yurtimiz olimlarining ilmiy ishlarida bayon etilgan jamiyat hayoti sohalarini demokratlashtirish va liberallashtirish borasidagi qarashlarni o'rganish zarur va muhimligini ta'kidlab o'tish zarur.

Hozirgi vaqtda televideniyeining turli jihatlarini tarixchilar, sotsiologlar, faylasuflar va ruhshunoslar tomonidan ko'rib chiqilmoqda. Mahalliy tadqiqotchilar oldida turgan dolzarb masalalardan biri televideniyeining siyosiy kommunikatsiya bilan bog'liq turli jarayonlarga ta'sirini o'rganishdir.

Biroq, mamlakatimizda zamonaviy O'zbekistondagi jamoatchilik fikrini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydigan siyosiy hodisa sifatida televideniyeini kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan fanlararo tadqiqotlar hali ham mavjud emas. Shuni aytish joizki, hozirgi vaqtda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tajribasi va amaliyoti yutuqlarini umumlashtiruvchi shunday kompleks tadqiqotlar o'tkazish zarurati yuzaga kelgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining III. "Ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar va fuqarolar bilan munosabatlari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** televideniye faoliyatining asosiy yo'nalishlari va boshqalardan ajratib turuvchi xususiyatlarini hamda O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyatni liberallashtirish va demokratlashtirishdagi siyosiy-tarbiyaviy ahamiyatini aniqlash va tadqiq qilishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

O'zbekiston jamiyatini liberallashtirish va demokratlashtirishda televideniyeini rivojlantirishning ilmiy konsepsiyalari va modellarini, me'yorlarini o'rganish;

---

бет, Хабермас Ю. Демократия. Разум. Нравственность. – М., 1992.

<sup>4</sup>Нисневич Ю.А. Информационная политика как фактор демократизации государственного управления в России. Дисс. на соис.докт.полит.наук. Д. М., 2001., Сабитов Р.А. Механизм формирования государственной информационной политики за рубежом: институциональный анализ. АР дисс. на соис.канд.полит.наук. М., 2000., Юровский С.А. Средства массовой информации в системе государственной политики современной России. АР дисс. на соис.канд.полит.наук. М., 2001., Мартынова Ю.С. Информационные стратегии в политике современного государства (теоретико-методологические аспекты). АР дисс. на соис.канд.полит.наук. М., 2004., Вондюкова Л.А. Роль телевидения в политической жизни общества. Дисс. на соис.канд.полит.наук. М., 2005., Маркеева М.Ю. Телевидение в процессе политической коммуникации в современной России. Дисс. на соис.канд.полит.наук. Тула, 2007.

televideniyeining tuzilishi, vazifalari va uning O‘zbekistonni liberallashtirish va demokratlashtirish jarayonida siyosiy muloqot kanali sifatidagi rolini tadqiq qilish; mustaqillikka erishgunga qadar O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida televideniyeining o‘rni va rolini ko‘rsatish;

mustaqillik sharoitlarida O‘zbekistonda televideniyeining siyosiy-huquqiy tartibga solinishini tahlil qilish;

O‘zbekistonda demokratik jamiyatni rivojlantirishda televideniyeini liberallashtirish va demokratlashtirishning ijtimoiy-siyosiy bosqichlarini va uni siyosiy kontekstda rivojlantirish istiqbollari tadqiq qilish;

ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar sharoitida milliy televideniyeini liberallashtirish va rivojlantirish muammolarini ochib berish;

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida televideniyeining siyosiy jihatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish an‘analarini tahlil qilish;

mintaqaviy teleko‘rsatuv kompaniyalari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

fuqarolarning siyosiy ongini shakllantirishga televideniyeining ta‘sirini ko‘rsatish;

televizion yangiliklarni tuzish orqali aholini xabardor qilish jarayonining mohiyati va o‘ziga xosligini tadqiq qilish;

saylovoldi kampaniyalari davrida televideniye vositalari orqali elektoratga ta‘sir o‘tkazish usullarini belgilash.

**Tadqiqotning obyekti** jamiyat siyosiy tizimining elementi sifatida zamonaviy ommaviy axborot vositalari tizimi hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** OAV, xususan, televideniyeining axborot faoliyati, shuningdek, ularning siyosiy jarayonlarning boshqa ishtirokchilari bilan o‘zaro munosabatlari shakllari, mexanizmlari va natijalari hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotda umumnazariy usullar, tarkibiy-funksional yondashuv, siyosiy va tizimli tahlil, kontent-tahlil usuli, “case-study” yondashuvi va boshqa usullar qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

fuqarolar siyosiy ongi va madaniyatini yanada takomillashtirishning samarali muloqot maydoni mezonlari sifatida vizual, audiovizual – shaxslararo rasmiy aloqalar hamda tashkilotlararo – siyosiy partiya, davlat boshqaruv organlari mexanizmiga asoslanishi siyosiy kommunikatsiyaning jamiyatni erkinlashtirish va demokratlashtirishdagi siyosiy omili ekanligi dalillangan;

xorijiy va ayrim xususiy telekanallar tomonidan “shaxs-jamiyat va davlat” manfaatlariga zid bo‘lishi mumkin bo‘lgan manipulyatsion materiallarga nisbatan davlat televideniyesining tezkorlik, xolislik va munosib qarshi javob berish mezonlari preventiv vosita sifatida global axborot makonida davlat hokimiyatining yuqori legitimligini ta‘minlashga xizmat qilishi asoslangan;

taraqqiyotning yangi bosqichida televideniye siyosiy axborot olishning manbalaridan biri bo‘lib, olinayotgan yangiliklarga nisbatan aholi ishonch darajasining miqdor-sifat ko‘rsatkichlari, aholini qiziqtirgan teleko‘rsatuvlar bo‘yicha xohish-istagining yuqori, o‘rta va quyi darajalari kabi mezonlar “xalq va

hokimiyat” o’rtasidagi muloqotni ta’minlashning asosiy vositasi sifatida xizmat qilishi dalillangan;

davlat hokimiyati organlarining televideniye orqali fuqarolar bilan muloqot jarayonida axborot ta’sirchanligining ijtimoiy-siyosiy muammolari yechimi va unga aholi munosabatining yuqoriligi tahdidbardosh jamiyatga erishishning muhim sharti sifatida fuqarolarning siyosiy ongida ijobiy qarashlarni shakllantirishga xizmat qilishi isbotlangan;

aralash saylov tizimidagi o’zgarishlarni aholiga to’g’ri va ta’sirchan yetkazish uchun “davlat+xususiy+hududiy” telekanallar o’rtasidagi uzluksiz, uzviy korporativ va vertikal tizim hamkorligini samarali tashkil etish asosida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ijtimoiy hayotda pozitiv qadriyatlarni rivojlantirishning institutsional va funksional jihatdan qonuniy asosga ega bo’lishi barqaror taraqqiyotning muhim omili ekanligi isbotlangan.

**Tadqiqot amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Dissertatsiyada bayon etilgan mulohazalar, nazariy xulosalar va amaliy takliflar milliy teleko’rsatuv tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va takomillashtirishda hamda amaliyotga tatbiq etishni yaxshilash uchun asos qilib olish mumkin.

Tadqiqot natijalari oliy o’quv yurtlarida “O’zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati”, “Globallashuv asoslari”, “Falsafa”, “Sotsiologiya” kabi fanlarni o’rganishda qo’llanma sifatida foydalanilishi mumkin. Shuningdek, davlat boshqaruvi organlari xodimlari tayyorlaydigan va malakasini oshirish maqsadida tashkil etiladigan dars o’quv ma’ruzalarida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqot natijalarining haqqoniyligi qo’llanilgan nazariy yondashuv va usullar, o’tkazilgan ijtimoiy so’rov natijalari, intervyular va ekspert-so’rovlar, nufuzli olimlarning tadqiqotlari, shuningdek, taklif va tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etgan, shuningdek, olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan holda xorijiy jurnallarda chop etilgan monografiya va ilmiy maqolalarga asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O’zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyatni liberallashtirish va demokratlashtirishda milliy televideniye siyosiy faoliyati bilan bog’liq muammolar va ularni bartaraf etish, metodologik uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish va ushbu sohadagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarni to’g’ri qo’llash bilan belgilanadi. Ushbu sohadagi huquqiy hujjatlar, shu bilan birga tadqiqotda ilgari surilgan konseptual g’oyalar va ilmiy xulosalardan oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilari va talabalari uchun o’quv qo’llanmalari ishlab chiqishda, o’quv jarayonida maxsus kurslarni tayyorlashda, amaliy politologiya bo’yicha seminar mashg’ulotlari va amaliyotlar o’tkazishda, siyosiy kommunikatsiya va “pablik rileyshnz” asoslari bo’yicha maxsus kurslarda keng foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Global axborot makonida jamiyatni liberallashtirish va demokratlashtirishda OAV faoliyatini takomillashtirish orqali televideniye faoliyatining asosiy yo’nalishlari va boshqalardan ajratib turuvchi xususiyatlarini hamda O’zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyatni

liberallashtirish va demokratlashtirishdagi siyosiy-tarbiyaviy ahamiyatini aniqlash va tadqiq qilish natijalari asosida:

fuqarolar siyosiy ongi va madaniyatini yanada takomillashtirishning samarali muloqot maydoni mezonlari sifatida vizual, audiovizual — shaxslararo rasmiy aloqalar hamda tashkilotlararo — siyosiy partiya, davlat boshqaruv organlari mexanizmiga asoslanishi siyosiy kommunikatsiyaning jamiyatni erkinlashtirish va demokratlashtirishdagi siyosiy omili bilan bog‘liq ekanligi O‘zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati va sport vazirligi tizimida yoshlar va aholining siyosiy ong darajasini yuksaltirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023 yil 18 dekabrda 01-20/152/1sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, jamiyat hayotida fuqarolar siyosiy ongi va madaniyatining rivojlanishi, aholining ommaviy axborot vositalariga bo‘lgan ishonch darajasining mustahkamlanishiga xizmat qilgan;

xorijiy va ayrim xususiy telekanallar tomonidan “shaxs-jamiyat va davlat” manfaatlariga zid bo‘lishi mumkin bo‘lgan manipulyatsion materiallarga nisbatan davlat televedeniyesining tezkorlik, xolislik va munosib qarshi javob berish mezonlari preventiv vosita sifatida global axborot makonida davlat hokimiyatining yuqori legitimligini ta‘minlash bilan bog‘liqligiga doir xulosalaridan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan tegishli manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda aholi ongiga salbiy ta‘sir qiluvchi axborotlardan himoyalash bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023 yil 20 dekabrda 01-6879-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan tavsiyalar zamonaviy siyosiy jarayonlarni tizimli tahlil qiladigan yosh avlodni tarbiyalash va shu orqali jamiyat hayotini liberallashtirish va erkinlashtirish jarayonlarini takomillashtirib borishiga xizmat qilgan;

taraqqiyotning yangi bosqichida televedeniye siyosiy axborot olishning manbalaridan biri bo‘lib, olinayotgan yangiliklarga nisbatan aholi ishonch darajasining miqdor-sifat ko‘rsatkichlari, aholini qiziqtirgan teleko‘rsatuvlar bo‘yicha xohish-istagining yuqori, o‘rta va quyi darajalari kabi mezonlar “xalq va hokimiyat” o‘rtasidagi muloqotni ta‘minlashning asosiy vositasi bilan bog‘liqligi asoslangan xulosalaridan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining mamlakatda so‘z erkinligini ta‘minlash, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlanishning muammoli masalalarini hal etish orqali tizim faoliyatini sifat jihatidan takomillashtirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023 yil 18 dekabrda 01-15/2788-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan tavsiyalar davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish bo‘yicha ishlarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

davlat hokimiyati organlarining televideniye orqali fuqarolar bilan muloqot jarayonida axborot ta‘sirchanligining ijtimoiy-siyosiy muammolari yechimi va unga aholi munosabatining yuqoriligi tahdidbardosh jamiyatga erishishning muhim sharti sifatida fuqarolarning siyosiy ongida ijobiy qarashlarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar mamlakatimizda jurnalist kadrlarni tayyorlashda O‘zbekiston

Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 18 dekabrda 03/03-3628-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan tavsiyalar zamonaviy siyosiy jarayonlarni tizimli tahlil qiladigan jurnalist kadrlarni tayyorlash, ular uchun sifatli yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratib berish orqali rivojlantirishga xizmat qilgan;

aralash saylov tizimidagi o'zgarishlarni aholiga to'g'ri va ta'sirchan yetkazish uchun "davlat+xususiy+hududiy" telekanallar o'rtasidagi uzluksiz, uzviy korporativ va vertikal tizim hamkorligini samarali tashkil etish asosida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ijtimoiy hayotda pozitiv qadriyatlarni rivojlantirishning institutsional va funksional jihatdan qonuniy asosga ega bo'lishi barqaror taraqqiyotning muhim omili sifatidagi ilmiy tavsiyalar O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2023 yil 18 dekabrda 1-482-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgartirishlar doirasida aralash saylov tizimining joriy etilishiga doir o'zgarishlarni davlat va xususiy telekanallar orqali aholiga to'g'ri va mazmunli yetkazish, jamiyat hayotining liberallashtirish va erkinlashtirish jarayonlarini takomillashtirib borishiga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari ma'ruzalar shaklida bayon etilgan va 2015-yilda Novosibirsk shahrida bo'lib o'tgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada, 2016-yilda Buyuk Britaniyada (London) bo'lib o'tgan VI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada, 2019-yilda Orenburgda bo'lib o'tgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada aprobatsiyadan o'tgan.

**Dissertatsiya natijalarining nashr etilishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 30 ta ilmiy maqola va 1 ta monografiya chop etilgan. Ulardan 13 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 tasi impakt-faktor jurnallarida, 10 tasi eng yaxshi respublika, 2 tasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tadqiqot ishlarining asosiy ilmiy natijalari chop etish uchun tavsiya etilgan xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 236 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** tadqiqotning dolzarbligi va zarurligi asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy jihatlari bayon qilingan. olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish va chop etish, dissertatsiyaning tuzilishi va uning hajmiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Siyosiy kommunikatsiya muammolarini tadqiq qilishning nazariy va uslubiy asoslari**" deb nomlanib, unda XXI asrdagi siyosiy kommunikatsiya konsepsiyalarining evolutsiyasi hamda jamiyat va

davlatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot jarayonlarida ommaviy axborot vositalarining roli o'rganiladi. Milliy va xalqaro miqyosdagi siyosiy kommunikatsiyaning mohiyati va mazmuni, shuningdek, uning mezonlari tatqiq qilinadi, chunki u siyosiy tizimning elementi sifatida quyi tizimlar, boshqa tizimlar va umuman jamiyat o'rtasidagi siyosiy axborotlarning ichki va tashqi almashinuvida muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, bugungi kunda demokratik tuzum va fuqarolik jamiyatini ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi, chunki ular haqiqiy demokratiyani rivojlantirishning bosh elementlari hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati davlat organlari tomonidan cheklanmaydigan, jamiyatning o'zini o'zi tashkil etishga qaratilgan aholining real ijtimoiy faolligi darajasi bilan tavsiflanadi. Mamlakatda fuqarolik erkinliklari faqat davlat va siyosiy hokimiyat siyosiy kommunikatsiya va ommaviy axborot vositalarining to'laqonli mavjud bo'lishi va rivojlanishi uchun sharoit va imkoniyatlar yaratgandagina to'liq amalga oshishi mumkin. Shunisi muhimki, ommaviy axborot vositalari va siyosiy kommunikatsiyaning boshqa institutlari davlat ishlari ustidan nazoratni amalga oshirsa, shunda haqiqiy fuqarolik jamiyati va demokratiyani kutishimiz mumkin. Bunday tizimga o'tish - o'ziga xos uzoq va murakkab jarayon bo'lib, u aholining siyosiy yetukligi bilan ham, unda aniq fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bilan ham uzviy bog'liqdir. Shuning uchun toifaviy "siyosiy kommunikatsiya" tushunchasi bugungi kunda ko'plab ijtimoiy-siyosiy fanlarning asosiy tadqiqot obyektiga aylanishga ulgurdi.

**Siyosiy kommunikatsiyaning** muhim ta'riflaridan biri, bu - siyosiy hayot subyektlari, shuningdek, davlat va fuqarolar o'rtasida axborot almashinuvi hisoblanadi<sup>5</sup>. Tabiiyki, bu ta'rif bilan siyosat fanining yo'nalishlaridan biri bo'lgan ushbu tushunchaning butun mohiyatini yetkazib berishning iloji yo'q. Siyosatshunoslikda "siyosiy kommunikatsiya" atamasini ko'rib chiqishda to'rtta yondashuv mavjud: birinchisi – bu tabiati, tuzilishi, vazifalari va samaradorligi jihatidan turli xil bo'lgan kommunikatsiya vositalari; ikkinchisi – shaxslararo kommunikatsiya; uchinchisi – ommaviy kommunikatsiya; to'rtinchisi – ushbu fenomen faoliyatining mohiyati. Televideniye shuningdek ommaviy kommunikatsiyalar va ommaviy axborot vositalarining tarkibiy elementi ham hisoblanadi.

Dissertatsiyada taniqli ijtimoiy-siyosiy tafakkur olimlari M.Gurevich va J.Blumlerdan tortib, R.Breddok, K.Shennon, V.Uiver, M.Defler kabi ushbu tushuncha to'g'risida fikr yuritgan va o'z yondashuvlarini ilgari surgan tadqiqotchilargacha bo'lgan qarashlar tahlil qilingan. Siyosiy kommunikatsiyaga universal ta'rif berishga urinishlardan biri M.Gurevich va J.Blumler tomonidan "Siyosiy aloqa tizimlari va demokratik qadriyatlar" asarida amalga oshirilgan bo'lib, unda ular siyosiy kommunikatsiyani "ommaviy axborot va turli xil ta'sir turlarini o'ta ma'lumotli va chuqur johillar, katta ta'sirga ega bo'lgan va butunlay huquqsiz, doimiy (siyosatga) jalb qilingan va baxtiyorona befarqlarga bo'lingan shaxslardan shaxslarga o'tkazish deb ta'riflaydilar. Shunday qilib, siyosiy aloqaning o'zi yuqoridagi tashabbuskorlar va faollashtiruvchilar hamda pastdagi kuzatuvchilar

---

<sup>5</sup>Политическая энциклопедия: 2 жилдда. 2-ж. - М.: Мысль, 1999. 701-бет.

o‘rtasidagi farqlarni o‘z ichiga olgan holda, tizim keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan ushbu ishtirok energiyasiga cheklovlar yaratadi”<sup>6</sup>.

Ushbu ta’rif asosan siyosatshunoslar tomonidan qo‘llaniladi va “ta’sir modeli”ga to‘liq mos keladi. Amerikalik siyosatshunos L.Pay ta’kidlaydiki, siyosiy kommunikatsiya signallarning elitadan ommaga bir tomonlama yo‘nalishini emas, balki jamiyatdagi siyosatga mutlaqo turlicha ta’sir ko‘rsatadigan norasmiy kommunikatsiya jarayonlarining butun diapazoni ko‘zda tutilishini ta’kidlaydi. Siyosiy kommunikatsiyaning barqarorlashgan usullarisiz siyosiy hayot olib borish mumkin emas.

Dissertatsiyada siyosiy kommunikatsiya va ommaviy axborot vositalari sohasidagi ilmiy qarashlar va nazariyalar hamda ularning siyosat bilan o‘zaro aloqalari tadqiq qilinadi. Mana shu yerdan axborot jamiyati konsepsiyalari kelib chiqadi. Ma’lumki, axborot jamiyati konsepsiyasi yaratuvchilari D.Bell va O.Toffler siyosiy kommunikatsiyani zamonaviy rivojlangan jamiyatning asosini tashkil etuvchi, uning hukmron elitesini tashkil etuvchi va uning boshqa, ancha ko‘proq cheklangan kommunikatsion imkoniyatlari bilan xarakterlanadigan o‘tmishdagi jamiyatlardan mohiyatli farqlarini belgilovchi maxsus ilmiy-axborot majmui sifatida tushunadilar<sup>7</sup>. Bu sohadagi zamonaviy tadqiqotchilar siyosiy kommunikatsiya konsepsiyasining rivojlanishini XX asrning ikkinchi yarmi boshlanishi bilan bog‘lashadi. G.Lasuell uni quyidagi zanjirli diagramma shaklida taqdim etgan: Kim olib keladi? (Manba) – Nimani ma’lum qiladi? (Xabar) - Qaysi kanal orqali? (Aloqa vositasi) - Kimga? (Oluvchi) - Qanday natija bilan? (Samaradorlik). Keyinchalik bu zanjir R.Breddok (“Qanday sharoitlarda?”, “Qanday maqsadda?” tarkibiy qismlari), K.Shennon va U.Uiver (“Shovqin, to‘sqinliklar” tarkibiy qismi), M.Defler (“Qarshi aloqa” tarkibiy qismi) tomonidan to‘ldirildi. Shunisi e’tiborga loyiqki, M.Deflergacha bo‘lgan tadqiqotchilar siyosiy muloqotni chiziqli va bir tomonlama jarayon deb hisoblaganlar. K. Doych kommunikatsiyani kibernetik tizimga qiyoslab, uni siyosiy tizimning asosiga kiritadi va siyosat va siyosiy jarayonlarni boshqaruv jarayonlari va tizimning tarqoq elementlarining (shaxslar) sa’y-harakatlarini muvofiqlashtirish jarayonlari sifatida ko‘rib chiqadi, ichkarida aylanib yuruvchi siyosiy axborot oqimlari esa “asab tizimi” funksiyalarini bajaradi (siyosatshunos J.-M. Kottre bu sohadagi siyosiy kommunikatsiya ahamiyati va roli jihatidan inson organizmidagi qon aylanishiga o‘xshashligini ta’kidlagan).

Shuningdek, dissertatsiyada ommaviy axborot vositalarining demokratiyaning muhim institutlari sifatida shakllanishi, tashkil topishi va rivojlanishi masalalariga, shuningdek, ularning fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi axborot va tarbiyaviy rolga alohida e’tibor qaratilgan. Ma’lumki, hozirgi zamon demokratik taraqqiyotining eng muhim muammolaridan biri, bu – fuqarolik jamiyatini shakllantirish va mustahkamlashdir. O‘z navbatida, jamiyat a’zolarida fuqarolik fazilatlarini va alohida siyosiy madaniyat bo‘lmasa, uning mavjud bo‘lishi mumkin

---

<sup>6</sup> Gurevitch M., Blumler J. R. Political Communication Systems and Democratic Values // Media Power in Politics / Ed. by D. A. Graber. Washington: CQ Press, 1994. P. 27.

<sup>7</sup>Суворова А.Ю. Политические коммуникации: сущность, структура и современные тенденции развития // Государственная служба. 2017. №6 (110). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/politicheskie-kommunikatsii-suschnost-struktura-i-sovremennye-tendentsii-razvitiya> (дата обращения: 25.04.2022).

emas. Uning mohiyati shundan iboratki, fuqarolik jamiyatida inson - ularni qondirish uchun ongli faoliyatga, boshqa odamlar bilan birgalikda iqtisodiy, siyosiy va boshqa muammolarni pragmatik tarzda hal qilish qobiliyatiga yo'naltirilgan aniq manfaatlar va ehtiyojlarning egasi - harakat qiladi. Fuqarolarning siyosiy madaniyatini shakllantirish va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish demokratik ommaviy axborot vositalarini, turli birlashmalar va fuqarolik institutlarining uyushgan manfaatlarini ifodalashi lozim bo'lgan jamoat guruhlarining butun majmuini talab qiladi. Ommaviy axborot vositalari esa fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlari hisoblanadi, chunki ular fuqarolarning o'zlarini yashayotgan mamlakat, davlat, yetakchi, ijtimoiy hayot va h.k. haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi. Bunday manzaraning obyektivligi, birinchi navbatda, ommaviy axborot vositalarining xilma-xilligiga, axborot maydonida turli nuqtai nazarlarning mavjudligiga bog'liq. Dunyo miqyosidagi raqamli telekommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanishi ommaviy kommunikatsiyaning fuqarolarning dunyoqarash munosabatlari, qadriyat yo'nalishlarini shakllantirishga ta'sirini sezilarli darajada kuchaytirdi va imkoniyatlarini oshirdi.

Ma'lumki, ommaviy axborot vositalari butun jamiyat yoki yetarlicha keng ijtimoiy hamjamiyatlar doirasida keng xabar almashinish uchun mo'ljallangan. Ular bir vaqtning o'zida jamoatchilik fikrini ifodalash kanali va uni shakllantirish tizimi hisoblanadi va qisqa vaqt ichida jamiyatga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Siyosat subyektlaridan birining foydasiga ijtimoiy ahamiyatga ega mavzudagi materialni taqdim etishdan ongli bir tomonlama manfaatdorlik demokratik siyosiy madaniyatning rivojlanishini to'xtatib qo'yadi. Aholining ommaviy ongini va xulq-atvorini manipulyatsiya qilish ham xavflidir. Jamiyat hayotining turli jabhalari to'g'risidagi muvozanatlashgan to'liq va xolis axborot olish siyosiy madaniyatni yuksaltirishning muhim sharti hisoblanadi. Tadqiqotchilar quyidagi ommaviy axborot vositalari vazifalarini alohida ajratadilar: axborot berish; jamoatchilik fikrini safarbar etish va shakllantirish; fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy ta'lim olishi, tarbiyasi va siyosiy ijtimoiylashuviga ko'maklashish; turli jamoat manfaatlarini himoya qilish; davlat va mahalliy hokimiyat organlarini nazorat qilish va tanqid qilish, siyosiy subyektlarni birlashtirish.

Ilmiy ish davomida jamiyatni liberallashtirish va demokratlashtirishda ommaviy va siyosiy kommunikatsiyalarning zamonaviy tizimi va uning asosiy yo'nalishlari tadqiq qilindi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanmasdan zamonaviy jamiyatning siyosiy sohasini rivojlantirish mumkin emas. Ularning jamiyatning siyosiy sohasiga ta'siri asoslantirildi, Internetning siyosiy institutlar va jarayonlarga ta'sir qilish istiqbollari ko'rib chiqadigan mavjud paradigmalar tahlil qilindi. Ijtimoiy kommunikatsiya, ommaviy kommunikatsiya jarayonlari, ularning shaxs ongiga ta'sir etish mexanizmlari va natijalarini tahlil qilish sohasidagi nazariy ishlar tadqiq qilindi. Tadqiqotning maqsadi zamonaviy kommunikatsiyalar va zamonaviy jamiyat siyosiy sohasining o'zaro munosabatlarini siyosat subyektlari va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning zaruriy tarkibiy qismi sifatida tahlil qilish bo'ldi. Internet tarmog'idan universal kommunikatsiya muhiti sifatida foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda axborot jamiyatida siyosiy kommunikatsiya

shakllarini rivojlantirishning asosiy an'analari aniqlandi; blogosferaning roli va uning targ'ibot-tashviqot faoliyatidagi, jamoatchilik aloqalari va siyosiy kommunikatsiyalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilindi.

Ommaviy axborot vositalari o'tgan asrning oxiridan boshlab turli ijtimoiy "modellar"ni shakllantirish jarayonlarida, shuningdek, jamoatchilik ongini yo'naltirish va qayta yo'naltirishda katta rol o'ynamoqda. Zamonaviy davr butun dunyoda axborot sohasida yuz berayotgan tub o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Avvalambor, bu hokimiyat, fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalarining yangi o'zaro munosabatlaridir, globallasuv jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular milliy o'ziga xoslik, milliy ong, siyosiy madaniyat va boshqalarning shakllanishiga, ya'ni ommaviy axborot kommunikatsiyalarining roli har doim muhim ahamiyatga ega bo'lgan sohalarga ta'sir ko'rsatadi.

Bizga ma'lumki, bizning mamlakatimizda ham xarakterli xususiyati bevosita moliyaviy foyda olish emas, balki jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazish imkoniyati bo'lgan axborot bozori sekin-asta shakllandi. Milliy o'ziga xoslik siyosat, iqtisod va madaniyat sohaslarida milliy ramzlarga munosabat muammosidan tortib, millat qadriyatlarini ijtimoiy hamjamiyat sifatida unga xos bo'lgan yagona hudud, umumiy tarixiy xotira, umumiy madaniyat, umumiy iqtisodiy makon, yagona ijtimoiy va siyosiy huquqlar haqidagi tasavvurlar bilan shaxsning ichki dunyosiga «kiritish»gacha keng tarzda namoyon bo'ladi. Agar mamlakatimizdagi mavjud vaziyatga nisbatan milliy o'zlikni shakllantirish vazifasini milliy xavfsizlikning tarkibiy qismlaridan biri sifatida ko'rib chiqsak, katta mubolag'a bo'lmaydi. Va bularning barchasi ularning ushbu jarayonga qo'shgan hissasini ortiqcha baholash qiyin bo'lgan ommaviy axborot kommunikatsiyalari yordamida sodir bo'ladi. Globallashtirish jarayonlari, elektron kommunikatsiya vositalarining ko'lami va imkoniyatlarining misli ko'rilmagan xilma-xilligi bugungi kunda mutlaqo yangi kommunikatsiya vaziyatiga olib keldi. Zamonaviy globallashtirish voqelikning alohida ajralib turuvchi xususiyati butunjahon bozori va unga hamroh bo'lgan transmilliy axborot oqimlarining shakllanishi hisoblanadi, bu esa milliy chegaralarning birin-ketin o'chib ketishiga olib keladi. Biz mashhur kanadalik madaniyatshunos M.Maklun o'z asarlarida "global qishloq" deb atagan narsaning aniq qiyofasini ko'ramiz. Ushbu metafora zamonaviy dunyoning o'ziga xos timsoliga aylandi, uning o'zaro bog'liqligi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi tufayli nihoyatda kuchaydi.

Bugungi kunda ijtimoiy hayotning axborot texnologiyalari kirib bormagan sohasini aytish qiyin, siyosat ham bundan mustasno bo'lmadi. Ijtimoiy hayotga faol kirib borib, yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari siyosiy institutlar va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xulq-atvor shakllari va modellarining tub o'zgarishlariga asos soldi.

Bundan tashqari, global axborot makonida doimo **televideniye rolining** o'zgarishi yuz berib kelgan, chunki u axborot tarqatishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, insoniyat jamiyati taraqqiyoti tarixida televideniye kommunikativ, bilim orttiruvchi, estetik, tarbiyaviy vazifalarni bajargan va bugungi kunda u hayotimizning doimiy hamrohi hisoblanadi. Odamlarda yangi narsalarni o'rganish, o'z dunyoqarashini kengaytirish, madaniyat va ta'limning yangi

cho‘qqilarini zabt etish istagi bor ekan, televideniye ham ular bilan birga yashaydi va takomillashib boradi. Televideniye tarixning eng muhim guvohi va aholi intellektual salohiyatining ko‘zgusi hisoblanib, odamlarga bilim beradi, ularning qalbiga go‘zallik tuyg‘usini singdiradi, inson dunyoqarashining shakllanishiga ta’sir qiladi, ilmiy va madaniy merosni asrab-avaylashga, shuningdek, jamiyatning progressiv rivojlanishiga xizmat qiladi. Televideniye insoniyatning bugunini uning o‘tmishi va kelajagi bilan bog‘lovchi ijtimoiy kommunikatsiya vositasi sifatida avlodlar ma’naviy aloqasining eng muhim bo‘g‘ini bo‘lib, madaniy-tarixiy izchillik jarayonlarida har doim faol rol o‘ynaydi.

Televideniye atamasi 1890-yilda Parijda bo‘lib o‘tgan Xalqaro elektrotexnika konferensiyasida rus elektrotexniki K.D.Perskiyning "Masofadan turib elektrovideniye masalasining zamonaviy holati" ma’ruzasida yangragan edi. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasida: “Televideniye (yunoncha “tele” — uzoq, “videnie” — ko‘rish) —estetik jihatdan qayta ishlangan turmush taassurotlarini muayyan masofaga uzatishga qodir bo‘lgan ommaviy videoaxborot vositasidir, deb izohlangan <sup>8</sup>. YuNESKO B.P.Grabovskiy va I.F.Belyanskiy asarlarining muhimligi va progressivligini hamda ularning elektron televideniye rivojlanishining dastlabki bosqichidagi tarixiy ahamiyatini yuqori baholadi<sup>9</sup>.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Televideniye shakllanishi va rivojlanishi: bosqichlari va zamonaviy tendensiyalar**” deb nomlanib, unda jahon axborot makonidagi televideniye fenomeni konseptual tahlil qilindi, undagi siyosiy kommunikatsiya modellarining shakllanishi va rivojlanishi, axborot tarqatishning bosh omili sifatida telesferaning rivojlanish tendensiyalari o‘rganildi.

Ma’lumki, televideniye XX asrning eng buyuk voqeasi bo‘lib, o‘zida ilmiy-texnikaviy tafakkur, madaniyat, jurnalistika, san’at, iqtisodiyotning eng ilg‘or yutuqlarini o‘zida mujassam etgan. Ommaviy kommunikatsiya vositalari tizimining tarkibiy qismlaridan biriga aylangan televideniye uning shakllanishini yakunlamadi, ammo nafaqat uning har bir elementining faoliyat ko‘rsatishiga, balki butun davlat institutlari faoliyatiga ham ta’sir ko‘rsatib, jiddiy o‘zgarishlarni keltirib chiqardi, bu ayniqsa jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy ahamiyatga ega davrlarida yaqqol namoyon bo‘ldi.

Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, tizimga yangi, ilgari mavjud bo‘lmagan OKVlarni kiritish ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni uzatish va uni texnik qayta ishlash tezkorligi nuqtayi nazaridan doimo progressiv qadam bo‘lib kelgan. Biroq, yangi ommaviy kommunikatsiya vositasi, ayniqsa, rivojlanishining dastlabki bosqichida, axborot taqdim etishning bir qator barqarorlashgan janrlari va usullarini meros qilib olmasligi mumkin emas edi.

Shunday qilib, masalan, ommaviy tarqalishi XX asrning boshlariga to‘g‘ri kelgan radio, mavjudligining boshida material uzatishning “gazetali shakllari”dan foydalangan. So‘ngra, ijtimoiy funksiyalarni bajaradigan yangi aloqa vositasi

---

<sup>8</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-жилд. А.Азизходжаев, М.Аминов ва б., 2004-338-б.

<sup>9</sup> ЎзР МТРК нинг жорий архиви. (А.Туляганов - 1963-1993 йй. Ўзтелерадиокомпанияси музейи директори; Ш.Гаджибаев – Тошкент ахборот технологиялари университетининг телевидение ва радиоэшиттириш кафедраси мудири; М.Атамухамедов – Ўзбекистон телевидение, радиоалоқа Маркази Бош директори билан интервью.); «Вечерний Ташкент» 8 мая 1996 йил, № 7, Туғилган жойи – Тошкент.

sifatida qarala boshlagan televideniye ham faqat 50-yillarning oxiriga kelib "radioda ko'rish" deb atay boshlashgan, chunki u o'z "o'tmishdoshining" yutuqlaridan, ya'ni axborot taqdim etishning radiyli shakllaridan ham foydalangan. 90-yillarning oxirlarida OKV tizimida inqilob sodir qilgan va tarmoqli nashrlarning paydo bo'lishiga imkon yaratgan multimedia tarmoq texnologiyalari hozirda faqat ishning multimedia formatida yangi shakllarini izlamogda, ma'lumotlarning asosiy ulushi esa ular tomonidan an'anaviy matn shaklida va illustratsiyalarda uzatilmogda.

Yangi ijtimoiy axborot turlari va manbalarining paydo bo'lishi OKV tizimini yanada shakllantirishga yordam bermogda, muqarrar ravishda tizim ichidagi "vazifalar"ning har bir tarkibiy qismning tabiati, xususiyatlari va texnik imkoniyatlariga muvofiq qayta taqsimlanishiga, shuningdek ta'sir qilish usullarini tuzatishga olib kelmogda.

Televideniye boshqa OKVga nisbatan jadal rivojlanishi axborotni uzatishdagi eng yuqori darajadagi ishonchlilik, ko'rgazmalilik, shuningdek, televizion axborotlarning ushbu afzalliklarini ta'minlovchi texnik yangiliklarning ildam o'sib borishi bilan izohlanadi. Avvaliga televideniye tomonidan siqib chiqarilgan va ko'rinishi jihatidan undan pastroq bo'lgan radio "fonli", ya'ni radio tinglashni boshqa har qanday faoliyat bilan birlashtirish imkonini beruvchi nomini olgan holda axborotli-musiqashittirishlari sohasida mustahkam o'rin egalladi. Birmuncha vaqt oldin radio yangiliklarni tezkor yetkazib berish bo'yicha yetarlicha doimiy ravishda televideniye ortda qoldirgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, birorta ham axborot televizion yangiliklari soni videomaterialni texnik qayta ishlash montaj paytidagi kabi ko'p vaqtni talab qilmaydigan voqea joyidan to'g'ridan-to'g'ri ulashlarsiz o'tmaydigan vaqtda, televideniye radio bilan mutlaqo bir xil shartlarda raqobatlashadi. Radioeshittirish esa bu holatni hisobga olgan holda, qoida tariqasida, musiqashittirish va reklamaga ustunlik bergan holda, qisqacha har soatlik yangiliklar sharhlari bilan cheklanishni afzal ko'radi.

Ko'rinib turibdiki, bosma OKV orqasida ushbu sharoitlarda axborotning tahliliyligi, ko'rsatmaliligi, hatto direktivligining yuqoriroq darajasi qolmogda, bu esa bosma matnga qaytish mumkinligi, uning o'rganish, taqqoslash va saqlash uchun imkonliligi bilan ta'minlangan.

O'zida televizion va bosma nashrning vizualizatsiya, tahliliy ma'lumotlar, ma'lumotlarni saqlash, tanlash va boshqa sifatlarini birlashtirgan tarmoq nashrlari, shuningdek ma'lumotlar hajmining cheklanmaganligi, so'ralgan ma'lumotlar va arxivlarni taqdim etish, "kalit so'z" bo'yicha qidirish, "onlayn" formatidagi obuna va axborot bulleteni hamda boshqa ko'rinishdagi yangiliklar, shuningdek, ularning faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikning mavjud emasligi axborot oqimlarini cheksiz va boshqarib bo'lmaydigan holga keltirdi, bu esa shubhasiz butun OAV tizimining ishlashiga ta'sir qildi.

Ommaviy aloqa vositalarining va, albatta, butun tizimning shakllanishi yangi ish shakllari va usullarining rivojlanishini, shuningdek samarali o'zaro ta'sir hamda talqinni rag'batlantiradigan qattiq raqobat sharoitida sodir bo'ldi va bo'lmoqda. Shu sababli, bugungi kunda biz eng yangi aloqa vositalarini uning tarkibiga kiritganimiz holda OAV tizimi shakllanishining yakuni haqida gapira olmaymiz, chunki asosiy muammo bunday uskunalarning yuqori narxi tufayli ularni doim ham sotib olish

qiyin. Shuning uchun televideniye axborot tarqatishning eng ommaviy va ommabop kanali bo'lib qolmoqda, natijada u OAV tizimida alohida o'rin va rolga ega.

Televideniye tadqiqotchilari postsovet davrida mahalliy televideniya rivojlangan ikkita mutlaqo yangi o'zaro bog'liq hodisalar haqida gapiradilar. Birinchidan, bu qattiq vertikalidan (Davlat teleradio tizimi) turli televizion tashkilotlar o'rtasidagi gorizontaal aloqalarga o'tish hodisasi. Ikkinchidan, g'arbda allaqachon ommalashgan, ammo mahalliy teletizim uchun tubdan yangi bo'lgan televizion dasturlarni tarmoq prinsipi asosida tarqatishni o'zlashtirishdir. Shu bilan birga, televizion eshittirishlarni isloh qilishda iqtisodiy muammolar tobora keskinlasha boshladi. Ammo mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy muammolarga hamda og'ir ijtimoiy muammolarga qaramasdan, sobiq ittifoqning barcha davlatlari televizion signallarni tarqatishning texnik bazasini rivojlantirishda davom etdilar va aholining yildan-yilga televizion eshittirishlar bilan qamrab olinishini oshirdilar.

Dissertatsiyada mustaqillikdan oldingi O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida televideniyaning o'rni va ahamiyati tahlil qilindi. Televideniye boshqa OAVlar bilan parallel ravishda oshkorlik, qayta qurish, monopoliyadan chiqarish, markazsizlashtirish va konsentratsiya davrlarini boshdan kechirgan. Televideniyaedagi ba'zi jarayonlar o'ziga xosligi tufayli keskinroq, ba'zilari esa liberalroq o'tdi, shunga qaramay, mamlakatda teleko'rsatuvlar bilan sodir bo'layotgan barcha hodisalar umuman OAV tizimiga tegishli umumiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq edi. XX asr o'rtalaridagi televideniye - medium, chegara bilmaydigan va millionlab nusxada san'at asarlarini tarqatadigan tomoshaga aylandi. Ammo san'at tarixida hech qachon amaliyot ko'lami va uning sifat darajasi o'rtasida unchalik katta farq bo'lmagan. Shuning uchun respublika televideniyesi badiiy ijodning boshqa sohalariga qaraganda fundamental vazifalarni shakllantirish va hal qilishga muhtoj sanaladi.

V. Vilchekning "Konturlar. Televizion san'atning tabiati to'g'risida kuzatuvlar" deb nomlangan tadqiqotida sovet televideniyesining keng amaliy materiallariga tayanib, "kelajak san'atining sehrli kristallari" televizor ekranidagi xaotik aralashma qa'riga g'arq bo'lyotganligini kuzatishga harakat qildi.

Rossiyalik tadqiqotchilar E.Bagirov va I.Kasev televideniye va jamiyatning progressiv rivojlanishi, televideniye va siyosat, televideniye va san'at, televideniye va axloq kabi masalalarni yoritadilar. V.Sappak televideniyaning asosiy xususiyatlarini, tele va kino aloqalarini, televideniyaning boshqa san'at turlari oldidagi majburiyatlarini ko'rib chiqadi. Muallif televideniye inson shaxsiyatining ahamiyatini, uning erkinligi va ifoda etilish tezkorligini, munosabatlarining yanada kengroq ijtimoiy muhit bilan yaqinligini oshiradi yoki hatto tasdiqlaydi, degan asosiy xulosaga keladi. 1970-1980-yillarda nashr etilgan B.Firsov, A.Karimov, M.Abdullaev, Z.I.Yesenbaev<sup>10</sup>, T.E.Ernazarov va U.Ya.Ibragimov kabilarning<sup>11</sup>

---

<sup>10</sup> Фирсов Б. Телевидение глазами социолога. М., «Искусство», 1971; Пути развития средств массовой коммуникации. – М.: Наука, -1977. -185с. Каримов А. Телевидение Узбекистана. Т., «Узбекистан», 1973.– 63с., Абдуллаев М. Рангли телевидение хақида.Т., «Ўзбекистон», 1979., Есенбаев З.И. и др. Средства массовой информации и пропаганды Узбекистана. – Т.: Узбекистан, 1979.-122с.

<sup>11</sup> Ирнazarov К.Т. Пресса и межнациональные отношения: критика стереотипов тоталитаризма, анализ политики независимого развития. Дис.. докт. ист. наук. 07.00.10. – Т., 2004- 307с., Ибрагимов Ш.М.

O'zbekiston SSRda televideniye rivojlanishining dastlabki bosqichlarini, O'zbekiston Kompartiyasining ichki va tashqi siyosatini tushuntirishda televideniyeining rolini o'rganadigan ilmiy asarlari alohida e'tiborga molikdir.

Biroq, XX asr oxiridan hozirgi kungacha O'zbekistonda televideniye siyosiy tarixini o'rganishdagi muayyan yutuqlar haqida gapirganda, ushbu yo'nalishni o'rganish bilan bog'liq ishlar jiddiy kamchiliklarga ega ekanligini ta'kidlash kerak. Xususan, tasvirlangan voqealarni haddan tashqari siyosiyashtirish davom etdi. Shu bilan birga, o'sha paytda nashr etilgan tadqiqotlar ko'pincha sharhlash xususiyatiga ega bo'lgan yoki asosan tor xronologik tafsilotlar bilan cheklangan alohida, xususiy masalalarni ko'rib chiqqan.

Shunday qilib, sovet davridagi boy faktik materiallarga ega bo'lgan ilmiy ishlar nazariy nuqtayi nazardan zaif bo'lib qolmoqda, chunki bunday ishlar o'z oldiga mafkuraviy tartibga soladigan tizimning yutuqlarini namoyish etish vazifasini qo'ygan va mualliflar totalitarizm stereotiplarining mahbuslari bo'lgan. Ushbu kamchiliklar o'sha davrdagi mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida ham kuzatiladi.

1980-yillarda respublika televideniyesi rivojlanishining aniq davrlari va faktlarini o'rganishda mualliflar uni turli tarixiy bosqichlarda namoyon bo'lgan o'ziga xos shakllari va xilma-xilligi bo'yicha yagona jarayon sifatida o'rganish vazifasini qo'ymadilar. Shu bilan birga, ularda totalitar-mustamlakachilik fonida televideniye faoliyatining rivojlanish tajribasini ma'lum darajada ochib beradigan muhim hujjatli materiallar mavjud.

O'sha davrdagi ilmiy tadqiqotlarda jiddiy konseptual va uslubiy kamchiliklar mavjud edi. Marksistik mafkura nuqtayi nazaridan, kommunistik ta'limotning sxolastik sxemalariga muvofiq yozilgan ushbu asarlar sotsialistik voqelikni yoritish va mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi salbiy hodisalarni yashirish istagi bilan ajralib turardi. Natijada, televideniye faoliyatini o'rganish bo'yicha siyosiy bilimlar deformatsiyaga uchradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng televideniyeining shakllanishi va rivojlanishi haqidagi ilmiy-tadqiqot ishlaridan F.Mo'minov, N.Abduazizova va O'.O'tayev<sup>12</sup> ishlarini keltirish mumkin. Professor F.A.Mo'minov o'zining «Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida» deb nomlangan monografiyasida jurnalistikaning jamoat instituti sifatida rivojlanishini, shuningdek, O'zbekistonda televideniye paydo bo'lishi va shakllanishining dastlabki bosqichlarini ko'rsatadi. N.A.Abduazizovanning ilmiy ishida mustaqil O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari faoliyatining normativ-huquqiy bazasi ochib berilgan. O'.O'tayevning kitobida esa O'zbekistonda televideniye paydo bo'lishi va rivojlanishi, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining faoliyati, milliy madaniy boyliklarni targ'ib qilishda televideniyeining o'rni o'rganildi.

---

Производственно-экономическая проблематика на телевидении Узбекистана. Автореф. дис..., канд. фил.наук.- Т.:1993.-19.с

<sup>12</sup> Мўминов Ф. Журналистика ижтимоий институт сифатида. – Т., 1998. – 175.б., Абдуазизова Н. Мустақил Узбекистон журналистикаси тарихи. Т: 2007 – 309б., Ўтаев Ў. Телевидение – давр кўзгуси. Т.: «Ўзбекистон», 2010. – 272б.

Biz o'rganayotgan mavzu doirasida Sh.A.Muradovning dissertatsiya tadqiqoti muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda axborot globallashtirishning mohiyati va tendensiyalarini siyosiy tahlil qilish, ushbu jarayonni yanada rivojlantirish istiqbollari ta'minlash; axborot tahdidlarining tabiati, globallashtirish sharoitida O'zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligini ta'minlash muammolari o'rganilgan<sup>13</sup>.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida televideniyaning jamiyat siyosiy hayotidagi o'rni bilan bog'liq masalalarni o'rganish bo'yicha K. Doych, K.Chandrappa, T.Beker, Sleyton Deril, G.Bolin, N. Gavin kabi olimlarning ilmiy ishlari e'tiborga molikdir.

V.G.Livshisning<sup>14</sup> dissertatsiya tadqiqotida Rossiyada axborot jamiyati sharoitida televideniyaning konseptual imkoniyatlari, muammolari va istiqbollari to'liq ko'rsatilgan, ijtimoiy mas'uliyatli televideniyaning ijtimoiy-siyosiy xususiyatlarini ko'rib chiqishga yaxlit yondashuv amalga oshirilgan; ijtimoiy mas'uliyatli va jamoat televideniyaning ishlarini tartibga solish, nazorat qilish va bashorat qilishning mumkin bo'lgan mexanizmlari taqdim etilgan, demokratik fuqarolik reqlamentiga muvofiq televideniyaning ijtimoiy javobgarligi tamoyillarini amalga oshirish varianti ishlab chiqilgan; yangi texnologik sharoitlarda institutsional tartibga solish va o'zini o'zi boshqarishning asosiy muammoli yo'nalishlari ko'rsatilgan.

V.P.Cherkasovning ilmiy maqolasida asosiy e'tibor televideniya va Internet kabi ommaviy axborot vositalarining fuqarolar ijtimoiy va siyosiy ongiga ta'sirining tabiati va potensialiga qaratilgan<sup>15</sup>. V.P.Cherkasovning so'zlariga ko'ra, televideniya va internet bir-biriga qarama-qarshidir: agar internet ikki tomonlama, interaktiv bo'lsa, teskari aloqa mexanizmini hisobga olsa, o'zaro ta'sirni o'rgatsa, ma'lumotni iste'mol qilish va yaratishga imkon bersa, televideniya bir tomonlamadir, u bir tomonga yo'nalgan, javob berish uchun mo'ljallanmagan va faqat tinglashni o'rgatadi. M.T.Artikbayev va A.R.Satilkanova asarlarida televideniyaning mohiyati ommaviy kommunikatsiya vositalaridan biri sifatida ko'rib chiqiladi, televideniyaning jamiyat siyosiy hayotidagi o'rni tavsiflanadi, televideniyaning ijtimoiy funksiyalari sanab o'tiladi. Ishda zamonaviy metodologik pozitsiya nuqtayi nazardan Qirg'izistonda jamoat televideniyesining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari ta'kidlanadi. Ushbu muammoni o'rganishda jamoat televideniyesi nima ekanligi, uning funksional xususiyatlari, shuningdek, zamonaviy sharoitda siyosiy-kommunikatsiya siyosatini tahlil qilish alohida o'rin tutadi. "Axborot jamiyati: Axborot urushlari. Axborotni boshqarish. Axborot xavfsizligi"<sup>16</sup> asari alohida o'rin tutadi, unda televideniyaning tezkor va ommaviy tarzda tarqalishining sabablari ta'kidlangan.

---

<sup>13</sup> Мурадова Ш.А. Проблемы обеспечения информационной безопасности Республики Узбекистан в условиях глобализации. Дис. ... докт. полит. наук. – Ташкент, 2009. – 281 с

<sup>14</sup> Лившиц В.Г. Телевидение в информационном обществе: проектирование и особенности развития. Автореферат дис. ... доктора политических наук. – Санкт-Петербург, 2006. - 48 с.

<sup>15</sup> Черкасова В.П. Телевидение и Интернет как каналы формирования политического сознания граждан // Вестник МГИМО. 2013. №4 (31).

<sup>16</sup> «Информационное общество: Информационные войны. Информационное управление. Информационная безопасность. / Под ред. М.А. Вуса. – СПб. Издательство С. – Петербургского университета, 1999. – 212 с.

Ommaviy axborot vositalarining nominal xronologiyasida televideniye faoliyatining rivojlanish bosqichlari quyidagi asosiy mazmun bilan tavsiflanadi: ularning birinchisi 1991- yildan 1992-yilgacha bo‘lgan vaqt oralig‘iga kiritilgan va bosqich sifatida qayd etilgan, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining Farmoni bilan O‘zbekiston SSR Davlat televideniye va radioeshittirish kompaniyasi O‘zbekiston Respublikasi Televideniye va radioeshittirish davlat qo‘mitasi (O‘zbekiston Respublikasi Davlat teleradiokompaniyasi<sup>17</sup>) deb nomlandi. Bu qisqa davr sovet partiya-davlat tuzilmalarining mafkuraviy ko‘rsatmalaridan ozod bo‘lishi, televideniya nodavlat kanallarining paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi.

1992-yildan 1996-yilgacha bo‘lgan *ikkinchi davr* O‘zbekiston Respublikasi Davlat teleradiokompaniyasi O‘zbekiston Davlat teleradiokompaniyasi (O‘zbekiston MTRK), O‘zbekiston teleradioeshittirish qo‘mitalari esa O‘zbekiston Davlat teleradiokompaniyasi etib qayta tashkil etilganligi bilan, viloyat televideniylari viloyat teleradiokompaniyalari etib qayta tashkil etilganligi bilan yodda qoldi<sup>18</sup>. Bu bosqich, asosan, ommaviy axborot vositalari ustidan davlat monopoliyasi bilan tavsiflanadi, o‘shanda mustaqil OAV deyarli mavjud emas edi. Biroq, bu “oshkoralik” davrining boshlanishi edi, ommaviy axborot vositalari siyosiy tizimning ayrim jihatlarini tanqid qila boshladi.

*Uchinchi davr* 1996- va 2005-yillarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, bu davrda O‘zbekiston Davlat teleradiokompaniyasi O‘zbekiston teleradiokompaniyasi (O‘zbekiston TRK)<sup>19</sup> deb nomlandi, uning tarkibiga ma’muriy-boshqaruv xodimlari hamda yuridik shaxs huquqlariga ega bo‘lgan quyidagi korxonalar “O‘zbektelefilm” kinostudiyasi, “Respublika telemarkazi”, “Nukus radiotelevideniye markazi”, shuningdek, teleradiokompaniya xodimlariga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar kiritildi<sup>20</sup>.

Bu "siyosatni medialashtirish" davri, ya’ni siyosiy hayot ommaviy mediaga ko‘chib o‘tadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilinishi bilan ommaviy axborot vositalariga davlat monopoliyasi qonunchilik darajasida barham topdi.

Ushbu bosqichda ommaviy axborot vositalari va hokimiyat o‘rtasidagi munosabatlarda yangi "o‘yin qoidalari" shakllandi, (OAV bir vaqtning o‘zida aholini xabardor qilish, hokimiyatning qonuniyligini qo‘llab-quvvatlash funksiyalarini va siyosiy maqsadlarga erishish uchun jamoatchilik fikrini manipulatsiya qilish texnologiyalari vositasi vazifasini bajaradi); ommaviy axborot vositalarining siyosiy jarayonlardagi rolining kuchayishi; ommaviy axborot

---

<sup>17</sup><https://ru.wikipedia.org/wiki/>

<sup>18</sup>[https://nrm.uz/contentf?doc=61396\\_ukaz\\_prezidenta\\_respubliki\\_uzbekistan\\_ot\\_07\\_01\\_1992\\_g\\_n\\_up-309\\_o\\_preobrazovaniy\\_gosudarstvennogo\\_komiteta\\_respubliki\\_uzbekistan\\_po\\_televideniye\\_i\\_radioeshchaniyu\\_v\\_gosudarstvennyu\\_teleradioeshchatelnuyu\\_kompaniyu\\_uzbekistana&products=1\\_zakonodatelstvo\\_respubliki\\_uzbekistan](https://nrm.uz/contentf?doc=61396_ukaz_prezidenta_respubliki_uzbekistan_ot_07_01_1992_g_n_up-309_o_preobrazovaniy_gosudarstvennogo_komiteta_respubliki_uzbekistan_po_televideniye_i_radioeshchaniyu_v_gosudarstvennyu_teleradioeshchatelnuyu_kompaniyu_uzbekistana&products=1_zakonodatelstvo_respubliki_uzbekistan)

<sup>19</sup>[https://nrm.uz/contentf?doc=29555\\_ukaz\\_prezidenta\\_respubliki\\_uzbekistan\\_ot\\_07\\_05\\_1996\\_g\\_n\\_up-1462\\_o\\_merax\\_po\\_povysheniye\\_rolu\\_televideniya\\_i\\_radio\\_v\\_obshchestvennom\\_razvitiy\\_uzbekistana&products=1\\_zakonodatelstvo\\_respubliki\\_uzbekistan](https://nrm.uz/contentf?doc=29555_ukaz_prezidenta_respubliki_uzbekistan_ot_07_05_1996_g_n_up-1462_o_merax_po_povysheniye_rolu_televideniya_i_radio_v_obshchestvennom_razvitiy_uzbekistana&products=1_zakonodatelstvo_respubliki_uzbekistan)

<sup>20</sup>[https://nrm.uz/contentf?doc=40339\\_polojenie\\_o\\_teleradiokompanii\\_uzbekistana\\_\(prilojenie\\_n\\_4\\_k\\_postanovleniy\\_u\\_km\\_ruz\\_ot\\_24\\_05\\_1996\\_g\\_n\\_190\)&products=1\\_zakonodatelstvo\\_respubliki\\_uzbekistan](https://nrm.uz/contentf?doc=40339_polojenie_o_teleradiokompanii_uzbekistana_(prilojenie_n_4_k_postanovleniy_u_km_ruz_ot_24_05_1996_g_n_190)&products=1_zakonodatelstvo_respubliki_uzbekistan)

vositalari erkinligi va ularning jamiyat oldidagi mas'uliyati o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash mexanizmini izlash.

2005-yildan 2016-yil dekabr oyigacha bo'lgan *to'rtinchi davr*, O'zbekiston TRK O'zbekiston MTRK etib qayta tashkil etildi, uning tarkibida davlat unitar korxonalarini tashkil etildi. Ushbu bosqich ommaviy axborot vositalarining miqdoriy va sifat jihatidan o'sishi bilan ajralib turardi. Ushbu davrda davlatning axborot makonidagi so'zsiz hukmronlikdan ma'lum darajada chiqib ketishi va nodavlat ommaviy axborot vositalarining jadal rivojlanishi kuzatildi, shuningdek, bir qator ommaviy axborot vositalarining xususiylashtirilishi tufayli davlat ommaviy axborot vositalarining umumiy sondagi ulushi kamayib bordi.

*Beshinchi davr* Prezident Sh.Mirziyoevning mamlakat rahbariyatiga kelgan 2016-yil dekabridan hozirgi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqich quyidagilar bilan tavsiflanadi: elektron ommaviy axborot vositalari sohasining xilma-xilligini kuchaytirish, kengaytirish (ko'p sonli yangi telekanallarning paydo bo'lishi); internet ommaviy axborot vositalarining jadal rivojlanishi; barcha darajadagi davlat organlari veb-saytlari va nodavlat "axborot sektori"ning eng xilma-xil veb-saytlarining jamiyatga siyosiy va axborot ta'sirini rivojlantirish.

Bunday holatlarni xorijiy mamlakatlar misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida televideniye tizimi markazlashtirilmagan. Ko'pgina boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, AQSHda Markaziy milliy efir stansiyalari mavjud emas. Buning o'rniga mahalliy media bozorlarida bir yarim mingga yaqin hududiy televizion stansiyalar mavjud bo'lib, ularning aksariyati yirik televizion tarmoqlarning filiallari hisoblanadi. Ushbu qoidalarga rioya etilishini Federal aloqa komissiyasi (Federal Communications Commission) davlat organi nazorat qiladi, ba'zan uni Federal aloqa komissiyasi deb ham atashadi. Bu Amerika shtatlari, AQSH va xorijiy davlatlar o'rtasidagi turli xil aloqalarni tartibga soluvchi mustaqil davlat agentligidir. Uning faoliyatiga AQSH prezidenti tomonidan tayinlanadigan beshta boshqaruvchi rahbarlik qiladi. Ularning nomzodlari Senat tomonidan ham tasdiqlanishi kerak. Boshqaruvchilar orasidan AQSH Prezidenti komissiya raisini tayinlaydi. Uchtadan ko'p bo'lmagan boshqaruvchilar bitta siyosiy partiyaning vakili bo'lishi kerak. Boshqaruvchilar besh yil muddatga tasdiqlanadi. Qo'shma Shtatlarda televideniye birinchi navbatda biznesdir. Televizion ko'rsatuvlar boshidanoq faqat tijorat korxonasi sifatida paydo bo'lgan yagona mamlakat AQSHdir. Uning yaratilishi va rivojlanishi faqat xususiy firmalar tomonidan amalga oshirildi<sup>21</sup>.

Televideniye tartibga solishning umumiy prinsiplarini tahlil qilish qismida Yevropada televideniye tartibga solishning quyidagi umumiy prinsiplari alohida qayd etilgan<sup>22</sup>:

1. Asosiy erkinliklardan biri sifatida ifoda erkinligini ta'minlash.

---

<sup>21</sup> Калягин Б.А. Характерные черты телевидения Соединенных Штатов. [www.gramota.net/materials/1/2011/11/4.html](http://www.gramota.net/materials/1/2011/11/4.html).

<sup>22</sup>Бодрунова С.С. Принципы европейского регулирования телевизионного сектора: либерализация рынка или защита демократии средствами ТВ? <file:///C:/Users/user/Downloads/printsipy-evropeyskogo-regulirovaniya-televizionnogo-sektora-liberalizatsiya-rynka-ili-zaschita-demokratii-sredstvami-tv.pdf>

2. Telesektorning axborot jamiyati standartlariga o'tishini ta'minlash.
3. Demokratiyani televideniye orqali himoya qilish.
4. Yevropa telekontentiga qulaylik yaratish.
5. Telesektorda bozor xilma-xilligini ta'minlash.
6. Jamoat eshittirishlarini himoya qilish.
7. Televideniye orqali YeIda madaniy xilma-xillikni saqlash.

Bu yerda Yevropa Ittifoqining qonunchilik strategiyasini ikkita asosiy qismga bo'lish mumkin: Yevropa Ittifoqining mahalliy xalqlar xilma-xilligini himoya qilish va muhojirlar hamda boshqa ozchiliklarga nisbatan ommaviy axborot vositalari siyosati. Ozchilik huquqlari, shu jumladan milliy ozchiliklar, AMFD 2007 da alohida ko'rib chiqiladi. PASE ning bir qator qarorlari mavjud bo'lib (va so'nggi yillarda ularning soni juda ko'paygan), ularning umumiy yo'nalishi kontentning plyuralligi va assimilyatsiyaning madaniy jihatlariga va yangi migrant guruhlari, shuningdek milliy va boshqa ozchiliklardagi keskinlikni kamaytirishga qaratilgan.

Dissertatsiyaning uchunchi bobi **«Mustaqil O'zbekistonda liberallashtirish va milliy televideniyaning rivojlanish jarayonlari»** deb nomlanadi. Unda fuqarolik jamiyati rivojlanishi va ular bilan bog'liq holda O'zbekistonda televideniye va axborot sohasini liberallashtirish hamda rivojlantirishning qiyosiy tahlili keltirilgan. Ma'lumki, har bir mamlakat va mintaqa o'zining tarixiy, siyosiy, axloqiy va madaniy merosi hamda umuminsoniy tajribasi asosida rivojlanadi. Bunday uyg'unlik ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlaydi. So'nggi yillarda O'zbekiston ham dunyodagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlardan chetda qolmadi.

Televideniye hukumat va boshqaruvning muayyan ijtimoiy nazorat texnologiyasi sifatida zamonaviy axborot siyosatining muhim vositasi bo'lib qo'llaniladi. Darhaqiqat, televideniyaning madaniyat bilan aloqasi doimiy ravishda, uning hozirgi, kundalik faoliyatida amalga oshiriladi. Televideniyaning nafaqat madaniy ahamiyatga ega ma'lumotlarni yaratish, balki saqlash va efirga uzatishdagi roli shubhasizdir. Buni nafaqat anglash, balki amalga ham tatbiq qilish kerak. Bu yerda ko'p narsa televizion faoliyatning madaniy asoslarini va televideniyaning madaniyatning turli sohalari bilan aloqalarini tushunishga bog'liq, biz bu haqda yetarlicha to'xtalib o'tdik.

Televideniyaning imkoniyatlari, uning jamiyatdagi o'rnini tahlil qilindi. Televideniye va uning imkoniyatlari ko'lami boshqa ommaviy axborot vositalariga qaraganda kengroq, shuning uchun unga ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarni targ'ib qilish va tarqatish masalalarida ko'proq mas'uliyat yuklangan. O'zbekiston televideniyesi umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish, o'zbek xalqining ruhi va tabiatini aks ettiruvchi ko'rsatuvlar, televizion filmlar va boshqa ijodiy ko'rsatuvlar tayyorlashda muayyan muvaffaqiyat va ish tajribasiga erishdi. Shunday qilib, u yangi zamonaviy shaxsni tarbiyalashda munosib o'rin egalladi. "O'zbekiston", "Yoshlar" va boshqa telekanallarda axborot-tahliliy ko'rsatuvlarga katta o'rin ajratildi.

O'zbekiston televideniyesi ma'naviyat, ma'rifat va madaniyat yo'nalishi bo'yicha, birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasining mustaqil, suveren davlat sifatidagi rolini yoritishga asoslangan. Bu jarayonda keng xalq ommasining ruhi, bu xalq psixologiyasi va dunyoqarashidagi o'zgarishlar, milliy o'ziga xoslik va tarixiy

xotiraning tiklanishi, milliy an'analar, qadriyatlarining o'ziga xosligi, ma'naviy yangilanish va kelajakka bo'lgan munosabatning o'zgarishi yoritildi. Bu yerda, albatta, milliy ongini qayta tiklash jarayonlarini, milliy qadriyatlar g'oyalarining ustuvorligini va tarixiy tafakkur bilan madaniy dunyo sahnasiga kirishni ko'rsatish muhim o'rin tutadi. Barcha dasturlar, teledasturlar, videofilmlar, kinofilmlar, hujjatli filmlar, spektakllar, teleko'rsatuvlar va maxsus dasturlar xalqning zamonaviy tafakkuridagi yangilanishlarni yoritishga, tarixda yaratilgan ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarni "Buyuk tarix – buyuk kelajak" tamoyiliga muvofiq anglashga qaratildi.

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining «Poytaxt», «Maxsus reportaj», «Intervyu 24», «Salom, Toshkent», «Bu kun», «Yangi davr», «Vaziyat 24», «Assalom, O'zbekiston», «Davr news», «Fakt 24», «Reportaj 24», «Studiya 24» kabi axborot ko'rsatuvlarida fuqarolarga turli xil alternativalar va ularning ehtimoliy oqibatlarini yetkaziladi. Oqilona doirada jamiyatning har bir a'zosi jamiyat va davlat hayotining asosiy masalalari bo'yicha xabardor qilinishi kerak.

Ma'lumki, televizion ko'rsatuv fikrlarining shakllanishiga ta'sir qiladi, siyosiy harakatlar erkinligini shakllantiradi, siyosiy qarorlarni yaratadi. Shu munosabat bilan bir qator G'arb olimlari ommaviy axborot vositalarining, xususan televideniyaning rolini quyidagicha belgilaydilar<sup>23</sup>:

Birinchi, ommaviy axborot vositalari muhim darvozabonlar (Gatekeepers). Ular voqea haqida xabar berishlari yoki u haqda jim turishlari mumkin. Shuning uchun avtoritar rejimlar har doim falokatlar haqida xabar berishga to'sqinlik qilishga harakat qilishgan. Ilgari Sovet yoki Xitoy hukumatlari uchun odatiy bo'lganidek zamonaviy texnik imkoniyatlar bilan axborotni monopollashtirish jarayoni endi sodir bo'lmaydi.

Ikkinchi, ommaviy axborot vositalari kun tartibini shakllantirishga qodir (Agenda-setting). Ular voqealarni muhim qilishlari, ularning ahamiyatini oshirib yuborishlari, tomoshabinlarning qiziqishini uyg'otishlari mumkin. Ular his-tuyg'ularni janjal darajasiga ko'tarishlari mumkin (tegishli holatlarda).

Uchinchi, ommaviy axborot vositalari munozaralarni boshqarishi mumkin. Mavzular ma'lum bir kontekstga kiritilishi, munozara muomalaga kiritilishi, muhim va oddiy dalillar taklif qilinishi kerak.

Bugungi kunda dasturlar faqat ma'lum tadbirlar, hisobotlar va tijorat yangiliklarini qamrab oladi, ammo kunning dolzarb mavzulariga e'tibor bermaydi. Aslida, efirga uzatilishi kerak bo'lgan ko'plab hayotiy muammolar mavjud. Shu munosabat bilan Prezident Sh.M.Mirziyoev 2017-yil 3-avgust kuni mamlakat ijodiy ziyolilari vakillari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda "madaniy hayotimizda tanqidiy ruh sezilmayapti, badiiy kengashlar yetarli darajada harakat qilmayapti, yangi asarlar, filmlar va spektakllar, ko'rgazmalar va konsert dasturlarini prinsipial va malakali baholash tobora kamyob bo'lib borayotganini" afsus bilan ta'kidlab o'tdi.

Televideniye odamlarga xizmat qiladi, shuning uchun har qanday ma'lumot odam uchun tushunarli bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan O'rol O'tayevning "Televideniye – davrning ko'zgusi" kitobidagi fikrlari e'tiborga loyiqdir. Xususan, u quyidagilarni yozadi: "Ikonizm televideniyaedagi ma'lumotlarning muhim

---

<sup>23</sup> Уэбстер Ф. Теория информационного общества. – М.: Аспект Пресс, 2004. – С. 11-12.

ko'rsatkichidir"<sup>24</sup>. Mamlakatda huquqiy davlat, demokratik jamiyat qurilmoqda, inson qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini himoya qilish eng yuqori qadriyatdir, shuning uchun dunyoda sodir bo'layotgan voqealarni o'z vaqtida yetkazish har doim ommaviy axborot vositalari, ayniqsa televideniye xodimlarining ustuvor vazifasi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Kuchli fuqarolik va demokratik jamiyatni barpo etishda televizion yangiliklarning ahamiyatini anglagan holda, davlat demokratik qadriyatlar va inson huquqlarini targ'ib qiluvchi teleshowlarning erkin rivojlanishi uchun barcha sharoitlarni yaratadi. Shunday qilib, televideniya boy ma'lumotlarga ega jurnalistik dasturlarni namoyish etish, televizion reportajlar, tahliliy va ma'rifiy dasturlar, milliy-siyosiy va umuminsoniy qadriyatlar keng targ'ib qilinadigan videofilmlar katta o'rin egallaydi.

Xususan, ommaviy axborot vositalari va televideniye vakillari jamiyat taraqqiyotida, ya'ni ma'naviyatni tiklashda, barkamol yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda, sog'lom turmush tarzi tamoyillari asosida mustaqillik g'oyalari sodiqlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan axborot faoliyati darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimida ilg'or mamlakatlar tajribasini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashning milliy tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Chuqur ilmiy tahlil natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

birinchidan, siyosiy aloqa kanali sifatida transformatsiya va modernizatsiya nuqtayi nazaridan mustaqillik sharoitida televideniyaning rivojlanishi uch bosqichda sodir bo'ldi, televideniye rivojlanishining har bir bosqichi o'ziga xos xususiyatlarga ega;

ikkinchidan, televideniye rivojlanishining birinchi bosqichida teleradioeshittirishlarni tashkil etish va teledasturlarni tayyorlashda davlatning ustuvor roli ko'rinib turadi;

uchinchidan, jamiyatni demokratlashtirishda televideniye rivojlanishining ikkinchi bosqichida televideniyaning davlat teleradiokompaniyasidan nodavlat segment ishtirokidagi teleradiokompaniyaga aylanishini kuzatish mumkin. Bu ommaviy axborot vositalarining eng mashhur va nufuzli shaklida liberallashtirish boshlanganligidan dalolat beradi;

to'rtinchidan, televizion liberallashtirishning uchinchi bosqichi - Milliy teleradiokompaniya teleradioeshittirishning mustaqil kanallarini yanada isloh qilish va rivojlantirish, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda, aholi va jamiyatning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini obyektiv va ko'p qirrali axborotda qondirishda mahalliy elektron ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish maqsadini qo'yadi;

beshinchidan, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi televideniye va radioeshittirish kanallarida mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning huquqiy demokratik davlat, ochiq fuqarolik jamiyatini shakllantirishga, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan muhim masalalarini yoritish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi;

---

<sup>24</sup> Ўтаев Ў. Телевидение – давр кўзгуси.-Т.: Ўзбекистон, 2010. – 144б.

oltinchidan, milliy teleradiokompaniya elektron ommaviy axborot vositalarini yanada liberallashtirish va demokratlashtirishga, teleradio dasturlarining kasbiy va badiiy darajasini oshirishga, iqtisodiy mustaqillikni, moddiy-texnik bazani mustahkamlashga va teleradio tuzilmalarning kadrlar salohiyatini oshirishga sabab bo'ladi.

Shuningdek, ushbu bobda **yoshlar siyosatning alohida subyekti va jamoatchilik fikrini shakllantirish obyekt**i sifatida tahlil qilinadi va ko'rib chiqiladi. Ma'lumki, bugungi kunda yoshlar mamlakatni demokratik o'zgartirishning strategik manbasi hisoblanadi. Ammo o'tish davri sharoitida u faqat demokratik qadriyatlar tizimida ongli ravishda idrok etish, zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarini amalga oshirishda faol ishtirok etish bilangina qimmatli resursga aylanishi mumkin. Ushbu muammolarni hal qilish uchun sharoit yaratishda va o'tish davrida yoshlar orasida fuqarolik fazilatlarini shakllantirishda muhim rol ommaviy axborot vositalariga tegishli.

Dissertatsiyada G'arb tadqiqotchilarining yoshlarning jamiyatdagi o'rni va roli haqidagi g'oyalari alohida o'rganib chiqildi. Masalan, Arkanzas shtati universiteti (ASU-Beebe) metodik xizmati direktori, taniqli oliy ta'lim arbobi, zamonaviy o'quvchi yoshlar muammolari bo'yicha ko'plab ishlar muallifi Mark Teylor quyidagilarni ta'kidlaydi: "Kichik yoshdan ko'plab tarbiyachilarning turli talablariga moslashishni o'rganib, ommaviy axborot vositalari yoki ko'p madaniyatli jamiyatdagi to'g'ridan-to'g'ri aloqalar orqali turli xil turmush tarzi va xulq-atvori bilan tanishib, kelajak avlod yoshlari xilma-xil sharoit va holatlarga moslashadi. Bundan tashqari, hech qanday an'anaviy mafkura bilan cheklanmasdan, bu avlod vakillari hayot muammolariga yanada hushyor va pragmatik yondashadilar hamda ularni hal qilish uchun har qanday mos vositalardan foydalanadilar"<sup>25</sup>. Zamonaviy Rossiyaning yana bir olimi D.D.Nevirko "yoshlarning jamiyatga kirish jarayoni ziddiyatli ekanligini alohida ta'kidladi. Yoshlar ongida sotsializatsiyaning qarama-qarshi tendensiyalari shakllanadi. Ulardan biri jamiyat uchun muhim bo'lgan ijobiy hayotiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi – samarali va halol ishlash istagi, bilimga qiziqish, fidokorona do'stlikning qiymati va boshqalar. Biroq, maqsadga erishish uchun har qanday vositadan foydalanish, iste'molchilik, foyda va o'yin-kulgi bilan bog'liq yana bir tendensiya kuchayib bormoqda"<sup>26</sup>.

Retrospektiv tahlilni hisobga olgan holda mamlakat yoshlarining ijtimoiy faolligi, ma'naviy qadriyatlari va hayotiy intilishlarini har tomonlama tahlil qilish demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatda demokratik jamiyatni shakllantirish sharoitida yoshlarning ijtimoiy farovonligini aniqlashga imkon beradi.

Dissertatsiyaning «**O'zbekistonda jamiyatni liberallashtirish va demokratlashtirish sharoitida televideniyaning rolini oshirish**» deb nomlangan bobida axborotning asosiy manbalaridan biri sifatida televideniye

---

<sup>25</sup> Тейлор М. Поколение Next: студент эпохи постмодерна // Отечественные записки. – 2006, № 3. – С. 218.

<sup>26</sup> Невирко Д. Д. Особенности социализации личности в авторитарных институтах России 90-х годов (опыт социологического анализа специфики профессиональной подготовки кадров органов внутренних дел): автореф. дис. ... д-ра социол. наук. – Барнаул, 1999. – С. 4–5

rivojlantirishning parametrlari va asosiy yoʻnalishlari hamda uning jamiyat va davlatni demokratlashtirishdagi istiqbollari tahlil qilindi.

Bugungi kunda axborot tarqatish sohasida jadal progressiv oʻzgarishlar yuz berayotgan zamonda televideniyaning rolini kuchaytirish fuqarolarning milliy ongini shakllantirish va rivojlantirish jarayonidagi asosiy ustuvor yoʻnalishlardan biridir. Chunki murakkab va ziddiyatli demokratlashtirish jarayonini boshdan kechirayotgan Oʻzbekistondagi zamonaviy sharoitda odamlarning jamiyatda hukmron boʻlgan fikri katta ahamiyatga ega. Jamoatchilik fikri fenomeniga qiziqish bilan bir qatorda, uni yaratish jarayoniga, uni ishlab chiqarishning siyosiy texnologiyasini aniqlashga qiziqish ham kam emas.

Ushbu muammoni oʻrganishning dolzarbligi nafaqat jamoatchilik fikrini oʻrganish nazariyasi va metodologiyasini rivojlantirish ehtiyojlari, balki uni takror ishlab chiqarishning siyosiy samaradorligini oshirish, zamonaviy jamiyat rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy muammolarini hal qilishda uning muhim xususiyatlari toʻgʻrisidagi bilimlardan foydalanishning amaliy ehtiyoji bilan ham bogʻliq.

Jamoatchilik fikrini shakllantirish va ifoda etish jarayonida ommaviy axborot vositalari muhim rol oʻynaydi. Ular jamiyatdagi barcha siyosiy voqealarning bevosita ishtirokchilaridir. Ommaviy axborot vositalari odamlar va siyosiy institutlarning siyosiy manfaatlarini ifoda etishga yoʻnalgan boʻlib, alohida guruhlar va qatlamlarning xatti-harakatlari va siyosatdagi ishtirokiga taʼsir qiladi. Jamoatchilik fikrini shakllantirish va undan foydalanish jarayonida siklik texnologiyalar alohida rol oʻynaydi.

Jamoatchilik fikrini hosil qilishning siyosiy texnologiyasi ijtimoiy texnologiyaning bir turi boʻlib, jamoatchilik fikrini barqarorlashtirish yoki oʻzgartirishga (holatini oʻzgartirishga) qaratilgan siyosat subyektlarining maqsadli amaliy faoliyatini tashkil etish va tartibga solish usulidir. Ommaviy axborot vositalari ushbu ijtimoiy texnologiyada muhim rol oʻynaydi, ular yetakchi siyosat subyektlarining oʻz vazifalarini amalga oshirishda instrumental rolni bajaradi, ommaviy axborot vositalarining aloqa institutlari sifatidagi ahamiyati tufayli taʼsir qilish vositasi hisoblanadi<sup>27</sup>. Tadqiqotchilarning fikriga koʻra, "ishlab chiqarish nuqtai nazaridan jamoatchilik fikrini shakllantirish jarayonlarini tushunish ishlab chiqarish subyektlari, ishlab chiqarish obyekti (faoliyati), jarayonning omillari, mexanizmlari, shuningdek jarayon natijalari toʻgʻrisida savollar tugʻdiradi.

Siyosatda jamoatchilik fikrini siklik ishlab chiqarish va undan foydalanish algoritmi, bizning fikrimizcha, sxematik tarzda quyidagicha ifodalanishi mumkin:

- 1) muayyan siyosiy vaziyat toʻgʻrisida obyekt (har qanday yirik ijtimoiy guruh) tomonidan jamoatchilik fikrini shakllantirish;
- 2) uni ommaviy axborot vositalarida, ushbu ijtimoiy guruhning rahbarlari bayonotlarida aks ettirish;
- 3) siyosiy munosabatlar subyektlari tomonidan jamoatchilik fikrini aniqlash;

---

<sup>27</sup> Вилков А.А., Некрасов С.Ф., Россошанский А.В. Политическая функциональность современных российских СМИ. Саратов: Издательский центр «Наука», 2011. – С. 93-94.

4) siyosiy munosabatlar subyektlari dasturlari va faoliyatida ushbu jamoatchilik fikriga murojaat qilish;

5) siyosiy munosabatlar subyektlarining ushbu guruhida axborot-kommunikatsiya ta'siri natijasida jamoatchilik fikrini tuzatish<sup>28</sup>. Jamoatchilik fikrini shakllantirishning ushbu siklik algoritmi shartli ravishda ajratilgan, chunki amalda obyektga turli xil ijtimoiy va siyosiy subyektlarning ko'plab axborot oqimlari, shuningdek guruhning o'zi ichidagi axborot oqimlari ta'sir qiladi.

Shuningdek, yoshlar orasida jamoatchilik fikrini shakllantirishning siyosiy samaradorligi tahlil qilindi, bu siyosiy institutlarning ommaviy axborot vositalariga qo'ygan aniq siyosiy maqsadlarini amalga oshirish natijasidir. Bu ommaviy axborot vositalarida mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda, yoshlar auditoriyasining ommaviy axborot vositalariga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olish asosida belgilangan maqsadlarga erishish darajasi bilan tavsiflanadi. Samaradorlikni baholash amaliy ahamiyatga ega, chunki u "boshqaruv faoliyatining yo'nalishlari qanchalik to'g'ri tanlanganligini va u qanday natijaga olib kelishini aniqlashga imkon beradi"<sup>29</sup>. Shunday qilib, samaradorlik, bu - ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik fikri va siyosiy xulq-atvorni mustahkamlash yoki o'zgartirish jarayonida erishilgan natijaning belgilangan maqsadlarga nisbatidir.

Shunga qaramay, ushbu konsepsiyaning nisbiylikni yodda tutish kerak. P.N.Kirichёk ta'kidlaganidek, ommaviy axborot vositalari hokimiyatning dastlabki uchta tarmog'idan farqli o'laroq: "hech kimga hech narsaga ishora qila olmaydi yoki hech narsa bera olmaydi, undan hech narsani tortib ololmaydi. Ular siyosiy faktlar, voqealar, hodisalar va axloqiy-rag'batlantiruvchi kayfiyatlarni publitsistik vositalar bilan ma'qullashlari yoki qoralashlari mumkin, bu esa hokimiyat institutlarini oqilona harakatga undaydi. Matbuotning quroli, bu - publitsistik so'zning obro'sidir"<sup>30</sup>.

O'zbekiston ommaviy axborot vositalarining siyosiy jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi ijtimoiy natijadorligini, avvalo, ularning faoliyati aholining ko'p qismi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy rivojlanishning umumiy vektori bilan o'zaro bog'liq holda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Biroq, muammo shundaki, ushbu strategik vektorni aniqlashning o'zi turli siyosiy kuchlar va mafkuralarning raqobati sharoitida sodir bo'ladi.

O'zbekistonning turli ommaviy axborot vositalari ushbu kurashda faol siyosiy ishtiroki tufayli ommaviy ongga maqsadli ijobiy ta'sir ko'rsatishning obyektiv vositasini ifodalay olmaydi. Bundan tashqari, jurnalistlar ko'pincha aholining ommaviy ongida hukmron bo'lgan siyosiy qadriyatlardan manipulyatsion ta'sir uchun asos sifatida foydalanadilar, uning maqsadi umuman ijtimoiy taraqqiyot va aholining siyosiy madaniyatini oshirish emas, balki saylovlarda muayyan siyosiy kuchlar va aniq rahbarlarni qo'llab-quvvatlashdir.

---

<sup>28</sup> Ўша манба-97-бет.

<sup>29</sup> Масленникова Е. В. Оценка эффективности деятельности органов государственной власти при исполнении государственных функций // Вестник ПАГС, 2009, № 18. – С. 12

<sup>30</sup> Киричёк П. Н. Публицистика и политика: природа альянса. – Саранск, 1995. – С. 12.

Shuni yodda tutish kerakki, turli xil ommaviy axborot vositalarining faoliyatini belgilashda ularning hokimiyat tuzilmalari va biznes elitalariga bog'liqligi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ommaviy axborot vositalarini tijoratlashtirish, ularning faoliyatida reklamaning rolini oshirish shunga olib keladiki, aniq ko'rsatuvlar va aniq jurnalistlarning reytingi tijorat samaradorligining eng muhim ko'rsatkichi bo'lib qoladi. Bunday holda, ijtimoiy samaradorlik ko'pincha deklaratsiyaga, maksimal foyda olish istagini yashiradigan pardaga aylanadi.

Rossiya televideniyesida G'arb teleko'rsatuvlari, seriallarining nusxalari paydo bo'lishiga har doim ham ma'naviy va axloqiy asoslarga, ayniqsa yoshlarga tahdid soladigan hodisa sifatida qarash shart emas. Ko'pincha mahalliy televizion mahsulotlar (bu seriallar va ko'ngilochar dasturlarga ham tegishli) sifati va ekrandagi hayotining davomiyligi jihatidan g'arbiy asl nusxadan ustundir. Va shunga qaramay, yillar davomida cho'ziladigan seriallar yoki shunga o'xshash shoular foyda olishga bo'lgan aniq munosabati tufayli asta-sekin eskirmoqda. O'zlaridan ochiqchasiga foydalanishayotganini anglagan holda, ba'zi tomoshabinlar manipulatorlar ostida bo'lishni xohlamaydilar va bunday dasturlarga qiziqishni yo'qotadilar. Ularning boshqa qismi esa bunday dasturlarni yoki seriallarni tomosha qilish ularga hech qanday foyda keltirmasligini anglab etsa ham ularga o'rganib qoladilar, ular buni rad eta olmaydilar va rad etishni xohlamaydilar. Shu o'rinda quyidagi muhim fikrlar paydo bo'ladi:

1. Siyosiy aloqa tizimida televideniyaning asosiy afzalligi uning tabiati bo'lib, u vizual va eshitish mumkin bo'lgan obrazlarni birlashtirishga, voqealar yoki hodisalarni dinamikada va harakatda ko'rsatishga imkon beradi. Aynan shu narsa uni bugungi kunda eng samarali va ommaviy ta'sir qilish vositasiga aylantiradi.

2. Tomoshabinlarga ekran orqali ta'sir qilishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berib, ushbu aloqa kanalining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, televizion janrlarning o'ziga xos ekspressiv va texnik vositalar bilan farqlanishini aniqlash kerak. Televideniya asosiy janr sifatida siyosatchilarning chiqishlari va teledebatlar, reklamalar, videokliplar, videofilmlar, reklama shoulari va boshqalar ishlatiladi.

3. Televideniyaning siyosatga ta'siri darajasi shunday ta'sirga erishdiki, biz siyosatni mediatizatsiya qilinishi yoki "mediakratiya davri"ning boshlanishi haqida gapirishimiz mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash kerakki, barcha televizion dasturlar mamlakat ichki siyosatining turli sohalarini: iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqalarni yoritish bilan ajralib turadi. Xususan, televideniya jamiyat siyosiy tizimini, uning alohida institutlarini, siyosiy munosabatlarni va institutlar o'rtasidagi munosabatlarni modernizatsiya qilish, takomillashtirishga qaratilgan siyosiy sohadagi ichki siyosat, ushbu o'zaro ta'sirlarni tartibga soluvchi qoidalar, qonunlar normalari va umuman barqaror, samarali siyosatni yaratish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Tahlil davomida quyidagi fikrlar va xulosalar ham paydo bo'ldi:

birinchidan, ijtimoiy-siyosiy hayotni demokratlashtirish va liberallashtirish jamiyatning ma'naviy va mafkuraviy asoslaridagi o'zgarishlar bilan uzviy bog'liqdir. Mustaqillikka erishgach, O'zbekiston jamiyati yagona davlat

mafkrasidan voz kechdi va demokratlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan milliy mafkuraga asoslana boshladi;

ikkinchidan, televideniye va ommaviy axborot vositalari milliy g'oyani fuqarolar ongiga tatbiq etishda va yangi g'oya asosida ongni shakllantirishda muhim kommunikativ vosita sifatida yangi g'oyalarni o'zgartirish va qabul qilishda, shuningdek, fuqarolarni ijtimoiy-siyosiy tarbiyalashda va ijtimoiy-madaniy hamda texnik tomonlarni ta'minlashda eng ta'sirchan vositaga aylandi. Bu, ayniqsa, juda qiyin va xavfli sharoitlarda yangi milliy g'oya asosida bir ijtimoiy tizimdan ikkinchisiga o'tish davrida aniq ko'rinib qoldi;

uchinchidan, televideniye muhim ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy funksiyani bajarib, barqarorlikni ta'minlash, fuqarolarning siyosiy ongi va madaniyatini, demokratiya hamda demokratik rivojlanishni tasdiqlashda zarur axborot makonini va shart-sharoitlarni yaratdi;

to'rtinchidan, fuqarolar ongidagi demokratik o'zgarishlar jamiyatni demokratlashtirishda ijobiy natijalar berdi. Teleko'rsatuvlar mustaqillik dunyoqarashi va ongini tasdiqlash, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga yangi nigoh bilan qarash hamda ijtimoiy-siyosiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini idrok etishga xizmat qildi;

beshinchidan, yangi siyosiy, kommunikativ texnologiyalardan foydalanish demokratik institutlarni, fuqarolarni ijtimoiy-siyosiy tarbiyalashda, liberal g'oyalarni shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Ijtimoiy-siyosiy beqarorlikning ayrim holatlarining oldi olindi. Televideniye oldida turgan maqsad va vazifalar mustaqillikni saqlash, himoya qilish va mustahkamlash, erkin demokratik jamiyat qurish va liberallashtirishga xizmat qildi.

Shuningdek, **demokratlashtirish sharoitida televideniyeining fuqarolarning ongiga ommaviy ta'siri mexanizmlari** o'rganildi. Demokratik jarayonning axborot oqimlariga bog'liqligi muammosi, shuningdek, televideniyeining ommaviy ongga yashirin ta'sirini qo'llash masalasi ko'plab olimlar va mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan<sup>31</sup>. Ba'zi tadqiqotchilar so'z erkinligisiz haqiqiy demokratiya bo'lishi mumkin emas degan xulosaga kelishdi, ommaviy ongni ommaviy aloqa vositalari orqali manipulyatsiya qilish esa u yoki bu tarzda shaxslarning fikrini bostirish va demokratiya asoslarini buzish bilan bog'liq.

Bugungi kunda ommaviy ongning ommaviy axborot vositalari ta'siri ostida o'zgarishini, shu jumladan, uni manipulatsiya qilish fenomenini hamma biladi. Biroq, ushbu muammoning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o'rganish va zamonaviy ommaviy axborot vositalarida (xususan, televideniye) manipulativ ko'rinishlarni tahlil qilish bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib borilmagan. Zamonaviy globallashtirish sharoitida ommaviy axborot vositalarining ta'siri ostida ommaviy ongni o'zgartirish

---

<sup>31</sup> Засурский И. И. Испытание свободой. Российская журналистика 1990-2004. = М. Изд-во Московского университета, 2004., Богомолов Ю.А. Хроника пикирующего ТВ 2000-2002 гг. – М. МИК, 2004., Борецкии Р. А. В Бермудском треугольнике ТВ. = М. Икар, 1998., Брайтман Д. Томпсон С. Основы воздействия СМИ. =М. Издательский дом Вильямс 2004., Паккард В. Тайные манипуляторы. = М. Смысл, 2004., Маклюэн М. Понимание Медиа - Внешние расширения человека / Пер с англ В. Никотаева, = М. -Жуковский КАНОН-пресс-Ц, Кучково поле, 2003., Рюмшина Л.И. Манипулятивные приемы в рекламе. — М-Ростов-на-Дону Март, 2004., Киреев О. Поваренная книга медиа-активиста. = М Ультра Культура, 2006.

jarayoni tezlashmoqda. Shaxslarning ongi turli darajadagi o'zgarishlarga duchor bo'ladi, bu media diksiyasi darajasiga ta'sir qiluvchi ko'plab omillarga bog'liq. Qadriyatlar, munosabatlaridagi o'zgarishlar, voqelikni idrok etishning o'zi tahlil qilinadi, bu turli ma'lumotlarning ta'siri natijasidir. Zamonaviy "ommaviy odam" ongida sodir bo'ladigan eng muhim o'zgarish tasvirlanadi - u yirtilib, parchalanib, mozaikaga aylanib, an'anaviy dunyoqarashning o'rnini egallaydi. Shunday qilib, televideniye "reallikni"ni yaratadi va respientlarning ongi va ruhiy holatiga ta'sir qilishning kuchli vositasi bo'lib hisoblanadi. Ushbu jarayonning natijasi ommaviy ongning o'zgarishi bo'lib, uning o'ziga xos turlari manipulyatsiya hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalari siyosatchilar, aktyorlar, musiqachilar, rejissorlarning turli xil obrazlarini shakllantiradi. Bunga ko'p jihatdan sahna imidjini yaratish uchun asos bo'lgan televideniye yordam beradi. Obrazni shakllantirar ekan, ommaviy axborot vositalari inson haqidagi g'oyani shakllantiradi, aholining e'tiborini unga jalb qiladi. Jamiyatga, uning holati va rivojlanishiga ta'sir qilish orqali ommaviy axborot vositalari taraqqiyotga hissa qo'shishi yoki uni orqaga tortishi mumkin. Jamoatchilik fikrini shakllantirish, muayyan ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish, e'tiqodlarni shakllantirish orqali ommaviy axborot vositalari odamni muayyan harakatlarga undaydi.

Ommaviy axborot vositalarining ta'siri natijalaridan biri, bu - xulq-atvor bilan bog'liq oqibatlaridir: kimdir xuddi shunday harakat qilayotganini ko'rgandan so'ng, odam xuddi shunday harakatlarni amalga oshiradi (masalan, tovar sotib olish, saylovda ovoz berish). Konseptual jihatdan xulq-atvorga ta'sir eng ko'zga ko'ringan ta'sir turi bo'lishi mumkin bo'lsa-da, uning ta'sir ko'lamini o'lchash ko'pincha juda qiyin bo'ladi; undan ham qiyini, aynan shunday xulq-atvor ommaviy axborot vositalarining ta'siri natijasi ekanligini isbotlashdir.

